

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA TA`LIM
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG`BEK NOMIDAGI O`ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

**JURNALISTIKA FAKULTETI “USLUBIYAT, TAHRIR VA
INTERNET JURNALISTIKASI” KAFEDRASI**

ESHBOYEVA TILLANISO NURYOG`DI QIZI

“Halima Ahmedovaning badiiy publitsistik ijodida pafos”

5320100-JURNALISTIKA

Bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.n. dots., U. Jo`raqulov

Toshkent 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-6
I BOB. PAFOS SO`Z SAN`ATINING ASOSI.	
1.1. Badiiy adabiyotda pafos va uning nazariy talqinlari.....	7-12
1.2. Badiiy publitsistikada pafos.....	12-15
II BOB. HALIMA AHMEDOVA LIRIKASIDA PAFOS SHAKLLARI.	
2.1. Halima Ahmedova she`riyatida pafosning namoyon bo`lishi...	12-24
2.2. Pafos va lirik ifoda.....	24-28
III BOB. HALIMA AHMEDOVA NASRIDA UMUMINSONIY VA MILLIY OMILLAR.	
3.1. Halima Ahmedova ijodida qahramon pafosi.....	28-32
3.2. Pafos—inson ichki olami ifodachisi sifatida.....	33-37
IV BOB. HALIMA AHMEDOVA PUBLITSISTIKASIDA PAFOSNING O`ZIGA XOSLIKLARI.	
4.2. Davr voqeligi va muallif pozitsiyasining publitsistik talqinlari.....	38-45
4.3. Badiiy publitsistikada muallif “men”i.....	46-50
XULOSA.....	50-53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	53-57

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi globallashuv zamonida hayot haqiqatini to'g'ri va to'laqonli aks ettirish davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, hal qiliuvchi talabga aylanib bormoqda.¹ Badiiy publitsistika esa hayot haqiqatini, davrning chinakam qiyofasini haqqoniy dalillar bilan dalillash, muallifning atrof voqeligiga baho berishi xususiyatidan jurnalistikaning eng ta'sirchan vositasidir.

O'tgan asrning 70-yillarida akademik V.Zohidov "Informatsion xususiyatga ega bo'lgan publitsistika emas, balki emotsional, obrazli, badiiy estetik tuyg'u hosil qiladigan publitsistika birinchi o'rinda turishi kerak degan", qarashni olg'a surgan edi. Bu fikr biroz bahsli bo'lsa-da, axborot olamida xaos vujudga kelgan bugungi kunimiz uchun ham ahamiyatlidir. Auditoriyani manipulyatsiya qilishga yo'naltirilgan, tobora insonni fikriy sayozlikka boshlayotgan ulkan axborot oqimi davrida chindan ham badiiy estetik tuyg'u hosil qiladigan, hayotni hissiy tushuntiruvchi va mushohada qilishga undaydigan badiiy publitsistik materiallarga juda katta ehtiyoj bor.

Badiiy publitsistika muallif shaxsiyati ifodasi bilan bugungi zamon odamining o'y-fikrlarini ifodalasa, ikkinchi jihatdan mana shu hayotga, hayotning turfa manzaralariga nazar solishga, xulosa chiqarishga yordam beradi. Publitsistikaning boshqa turlaridan farqli ravishda badiiy-publitsistika obrazlilik yordamida o'quvchi ongiga, tuyg'ulariga juda katta hissiy emotsional ta'sir o'tkazadi, materialda ifodalanayotgan ijtimoiy fikrga inkor etib bo'lmas hayotiy manzaralar yordamida o'quvchini qattiq ishontiradi. Badiiy publitsistikadagi bu obrazlilikning salmog'i ortib borishi bilan ijtimoiy fikr, g'oya— poetik g'oya, pafosga aylanadi. Demak, badiiy publitsistikadagi pafos uning ta'sirchanligiga xizmat qiladi. Badiiy publitsistikada yozuvchi badiiy publitsistikasi degan ham bir yo'nalish borki, u badiiy publitsistikaning ham adabiyotga, ham jurnalistikaga xoslangan bir janr ekanini isbot etadi. Prezidentimizning "Shaxsan men shoir va adiblarni doimo jamiyatning oldingi saflarida yuradigan, hayotni kuzatib, odamlarning yuragida, dunyoqarashida bo'layotgan o'zgarishlarni ta'sirchan

¹ . Bu haqda qarang. Eng asosiy mezon—hayot haqiqatini aks ettirish. www.mohiyat.uz. 2014.27.05. 11:06

obrazlar, yorqin badiiy bo'yoqlar orqali mahorat bilan yoritib bera oladigan, el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoiy insonlar deb bilaman"¹, degan so'zidan kelib chiqsak, yozuvchi badiiy publitsistikasining ham ijtimoiy, ham badiiy qimmatini oydinlashadi.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotida pafosga oid qilingan jiddiy tadqiqotlardan biri Mirzaahmad Olimov tomonidan olib borilgan bo'lib, unda pafosning nazariy ta'rifi va amaliy misollari, jahon estetika tarixida tutgan o'rni, o'rganish darajasi, pafosning asosiy estetik kategoriyalar bilan munosabati, pafosning umuminsoniy asoslari, ma'no kategoriyasi XX asr o'zbek adabiyoti asarlari misolida tahlil qilinadi.

Badiiy publitsistikadagi pafos o'ziga xosliklari ilk bor Ochil Tog'ayevning "O'zbek badiiy publitsistikasi" kitobida turli publitsist nazariyotchilar fikrlarini muqoyasa qilish orqali o'rganilgan bo'lib, badiiy publitsistika pafosi obraz vositasida haqiqatni izlovchi, uni talqin etib, izohlovchi haqiqatni bilish pafosidir degan xulosaga kelinadi.

Saida Qurbonova "Yozuvchi publitsistikasining rivojlanish xususiyatlari" nomli dissertatsiyasida O'tkir Hoshimov va Xurshid Do'stmuhammad qalamiga mansub badiiy publitsistik materiallardagi ijtimoiy voqelik va muallif pozitsiyasini o'rganar ekan, bu ikki ijodkor asarlaridagi pafosni ham tahlil qiladi. Va yakunida O'tkir Hoshimov o'z maqolalarida satirik, komik va qahramonona pafosga yo'g'rilgan ifoda uslubiga tayanishi, Xurshid Do'stmuhammad maqolalarida esa dramatik pafos yetakchilik qilishi haqidagi ilmiy xulosaga kelinadi.²

Halima Ahmedovaning lirik ijodi va faoliyati ayrim malakaviy bitiruv ishlari doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, lekin badiiy publitsistikasi va bu maqolalarning pafosi hali tadqiq qilinmagan edi. Ilmiy ishning yangiligi shu bilan izohlanadi. Qolaversa, mazkur ishda ijodkorning lirik va nasriy asarlariga xos pafosning o'ziga xos xususiyatlari she'r va hikoyalar tahlili misolida bayon qilingan. Bunda esa biz

¹ Karimov I. Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. -T.: O'zbekiston. 2009, - 8-b.

² Qurbonova S. Yozuvchi publitsistikasining rivojlanish xususiyatlari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya -T.: 2010, - 23-24-b.

Belinskiyning ma`lum ijodkor asarlari pafosini o`rganish uchun uning butun asarlari pafosini o`rganish, butun asarlari pafosini tadqiq etmoq, belgilab olmoq kerak degan fikriga tayandik. Ochil Tog`ayev ham Belinskiyning A.Gertsen povestlari pafosi haqidagi fikrida Gertsen publitsistik talantining ham mohiyati ochib berilgan degan fikrni bayon qiladi. Ilmiy ishda Halima Ahmedova lirikasi tahlili doirasida pafos turlari va nasriy asarlari pafosidagi muallif va qahramon “men”I xususiyatlari tadqiq etilib, badiiy publitsistik maqolalaridagi obrazlilikning psixologik omillar bilan bog`liqligi o`rganiladi.

Halima Ahmedova ijodi publitsistik pafosi nafaqat davr, balki o`z ichki “men”i haqiqatlarini ham bilish, tadqiq etish degan xulosaga kelingan. Mazkur xususiyatlar **ishning ilmiy yangiligini** qamrab oladi.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi. Malakaviy bitiruv ishining maqsadi Halima Ahmedovaning badiiy publitsistik ijodi, undagi obrazlilik va pafosni o`rganishdan iborat.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:

- pafos nazariyalarini o`rganish va tadqiq etish;
- badiiy publitsistikadagi pafos xossalarini tahlil qilish;
- badiiy publitsistikadagi obrazlilikni vujudga keltiruvchi vositalarni misollar yordamida o`rganish;
- Halima Ahmedovaning lirik asarlariga xos pafos ko`rinishlarini aniqlash;
- pafos mazmunini belgilovchi qahramon ruhiy olami tovlanishlarining muallif nasriy asarlarida ifoda topishini o`rganish;
- Halima Ahmedova ijodi pafosining asosiy motivlarini belgilash;
- ijodkorning badiiy publitsistik asarlarida muallif pozitsiyasi va davr voqeligiga munosabatini o`rganish;
- Halima Ahmedova badiiy publitsistikasi pafosini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Tadqiqotning obyekti Halima Ahmedovaning turli nashrlarda chop etilgan badiiy publitsistik maqolalari, suhbat-intervyu, badia va esselaridir. Qolaversa, “Shafaq ibodati”, “Umid

soyasi”, “Tunggi marvaridlar”, “Nigoh qiblas”, “Afsun” kabi to`plamlariga kirgan she`rlari, “Yosuman gulining soyasi” kitobiga jamlangan hikoyalaridir. Tadqiqotning predmetini mazkur asarlarning pafosi, asosiy pafos motivlari, uni yuzaga keltirgan umuminsoniy asoslar, davr voqeligiga munosabat va obrazlilik tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish va xulosa qismlari va 4 asosiy bobdan iborat. Asosiy bobning dastlabki faslida pafos nazariyalarining estetik va adabiyot nazariyasida tutgan o`rni, o`rganilish darajasi haqidagi mulohazalar bayon qilinadi. Ikkinchi fasl badiiy publitsistika pafosini o`rganishiga qaratilgan. Ikkinchi bobda Halima Ahmedova lirikasida pafos turlarining namoyon bo`lishi tahlil qilingan. Uchinchi bobda Halima Ahmedovaning nasriy asarlari tahlili asosida pafosning umuminsoniy kuchlari va asosiy motivlarini o`rganish maqsad qilingan. To`rtinchi bobda esa ijodkor badiiy publitsistikasi pafosi va davr voqeligiga munosabati o`rganiladi.

Xulosada ishning asosiy qismida bayon qilingan mulohazalar umumlashma fikr tarzida ifodalangan.

Malakaviy bitiruv ishi foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati bilan yakunlangan.

I Bob. PAFOS SO`Z SALTANATINING ASOSI

I.1. Badiiy adabiyotda pafos va uning nazariy talqinlari.

Pafos atamalariga adabiyotshunoslik lug`atlari va nazariyasiga oid kitoblarga turlicha ta`rif beriladi. “Pafos” so`zi ilmiy istiloh sifatida dastlab ritorika fanida ishlatila boshlangan.”¹

Pafos yunoncha so`zdan kelib chiqib, “his, ehtiros” ma`nosini anglatadi. “Ijodkorning o`zi tasvirlayotgan voqelikka g`oyaviy-hissiy munosabati, aftor emotsionnaligi. Gegalga ko`ra u san`atning o`zagi, “san`at saltanatining” asosi sifatida talqin qilinadi.”²

Lug`atlar ta`rifi:

Pafos atamasiga adabiyotshunoslik oid darslik va lug`tlarida turlicha ta`rif berilgan. Jumladan, Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” darsligida “Pafos” lotincha so`z bo`lib, bir hisga qattiq berilish zo`r hayajon, ehtiros demakdir” degan fikr keltirilgan. O`zbek adabiyotshunosligida pafos haqidagi dastlabki jiddiy tadqiqotlardan biri Mirzaahmad Olimovning “Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi” dissertatsiyasida pafosning kelib chiqishi yunon mifalogiyasiga borib taqalishi aytilib, uning yunoncha so`z ekanini ta`riflaydi.

“Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati”da pafosga—jo`shqinlik degan ta`rif beriladi. “Asar pafosi yozuvchini maftun etgan va butun asarga singib ketgan g`oya, his va hayajondir”.³

Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o`zbekcha izohli lug`atida pafos grekcha “pathos”-ehtiros so`zidan olingani yozilib, u badiiy asarni jonlantirgan emotsional asos tarzida ifodalanadi. Va pafosda ijodkorning fikri va hissiyoti birikib ketishiga urg`u beriladi.

Pafos haqidagi dastlabki qarashlar Aristotelning “Poetika” asarida uchrab, u ehtirosdir degan to`xtamga keladi.

¹ Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T. 1996, -23-b.

² Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. –T.:Akademnashr, 2013. -220-b.

³ Adabiyotshunoslik terminlari lug`ati. –T.: O`qituvchi. 1967. -162-b.

XVIII asrga kelib Gegel o`zining “Estetika”sida pafosni chuqur tadqiq etadi va uni san`at saltanatining mohiyatini ochib beruvchi kuch sifatida baholaydi.

Dilmurod Quronov tuzgan adabiyotshunoslik lug`atida ham pafos— ijodkorning voqelikka g`oyaviy-emotsional munosabati deb talqin qilinadi.

Yuqorida tilga olingan asarlarning barchasida pafos adabiyotshunoslikka— notiqlik (ritorika)dan o`tgan termin ekani qayd etiladi. ( Arastuga ko`ra ham pafos notiqlik usullaridan bo`lib, uning yordamida notiq tinglovchilarga o`zi istagan hislarini uyg`otadi.)

Pafos dastlab Aristotelning “Poetika”sida muayyan estetik hodisani ifoda etuvchi istiloh sifatida qaror topgan: “Tragediyaning uchinchi qismini pafos— ehtiros tashkil etadi. Ehtiros esa halokat yoki iztirob keltiruvchi harakatdir.”¹ Aristotel pafosning tragediyada qahramonlar ruhiy iztirobi orqali yuzaga chiqishi va tomoshabinga ham shunga mos his uyg`otishiga asosiy e`tiborni qaratadi.

O`zbek mumtoz adabiyotida ham mohiyatiga ko`ra pafosni ifodalagan fikrlar uchragan. Klassik adabiyotimiz vakillari “...ma`nosi jihatidan “pafos” so`ziga yaqin “dard” so`zini ishlatar hamda shoir “bedard” bo`lishi mumkin emasligini tasdiq qilar edilar”².

“Masalan, Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida, she`riyatning dunyoda mavjud bo`lishidan maqsad so`z (yonish) va dardlarni ifodalashdan boshqa narsa emas, degan fikrni aytadi:

Bu gulshanki, rashki naqshi Chindur,
Nasimi ham, guli ham otashindur.
Bo`lurdin dahr bo`stonida mavjud,
Emasdur g`ayru so`z-u dard maqsud.”³

Adabiy istiloh sifatida pafos muammosini Aristoteldan keyin XVIII asrga kelib Gegel chuqur tadqiq etadi va uni “san`at saltanatining mohiyati” sifatida ko`radi. Gegelning “Ruh fenomenologiyasi” asarida nafaqat san`atdagi, balki “har

¹ Aristotel. Poetika. -T.: G`G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti. 1980, - 25-b.

² Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. -T.: O`qituvchi. 1980, -163-b.

³ Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T. 1996, -24-b.

qanday insonning real hayotidagi pafos to'g'risida qimmatli fikrlarni uchratish mumkin. Shulardan bir parcha: "Insoniy va ilohiy qonunning harakati o'z zaruriyatining ifodasini individlarda topadi, ularda umumiylik pafos sifatida namoyon bo'ladi."¹

Mirzaahmad Olimov yuqorida tilga olingan ilmiy ishida mazkur ta'rifning pafosga berilgan eng quyma ta'rifligini e'tirof etadi va pafos ma'no kategoriyasi jihatidan badiiy asar yaratish jarayonidagi, shuningdek, hayotdagi pafosning ham xususiyatlarini qamrab olishi kerak degan qarashni quvvatlaydi.

Jumladan, olim pafosning ma'no kategoriyasini rus va o'zbek adabiyotshunoslari qarashiga ko'ra quydagicha tasniflagan:

“Pafos:

— yozuvchining o'z qahramonlariga g'oyaviy-emotsional munosabati va ularga bergan bahosi (G.N. Pospelov);

— asar mazmunining g'oyaviy-emotsional yo'nalishi (Y.G. Rudneyeva);

— asarning umumiy konsepsiyasi (M.B. Xrapchenko);

—harakatdagi estetik ideal (S.M. Petrov);

—asar g'oyaviy-emotsional mazmunining o'ziga xos konsentratsiyasi(N.K. Gey);

— fikr va hisning birligi, ijod jarayonida yozuvchining ilhom manbai, badiiy asarning g'oyaviy asosi, yozuvchi ijodining umumiy yo'nalishi(U.O.Sultonov);

—ijodkorning butun asariga singib ketgan ehtirosi (B.U. Sarimsoqov)”.

Va tadqiqotchining bu tasnif haqidagi xulosasi “Faqat S.M. Petrov va I.O.Sultonovning badiiy asar yaratish jarayonidagi, shuningdek, hayotdagi pafos xususiyatlarini ham qamrab olishga harakat qilganlar” tarzida yakunlangan. Kuzatishimizcha, Mirzaahmad Olimov pafosni muammo sifatida o'rganar ekan, eng avvalo, uning hayotdagi ko'rinishini asosiy obyekt sifatida biladi va badiiy asardagi pafosni ham hayotdagi pafos in'ikosi sifatida biladi(bu haqida hali to'xtalamiz).

¹ Olimov M. Hozirgi o'zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.1996, -34-b.

Gegeldan keyin pafos o'zi nima degan savolga Belinskiy ham javob qidiradi va quyidagi xulosaga keladi:

“Ijod—ermak emas, badiiy asar ham bekorchilikning yoki tantiq xayolning mahsuli emas: u san'atkordan mehnat talab qiladi, ya'ni asarning homilasi qanday kelib yuragiga tushib qolganini o'zi bilmaydi, ona bolasini to'qqiz oy qomida ko'targanidek, san'atkor ham poetik fikr javharini o'z yuragida olib yuradi, ijod jarayoni onalarning ko'z yorishiga o'xshab ketadi va o'z-o'zidan ayonki, shu jismoniy aktning ruhiy azoblari, to'lg'oqlari san'atkorga ham begona emas. Shuning uchun ham, modomiki shoir ijodi mehnati va jasoratiga bel bog'lagan ekan, demak qandaydir ehtiros uni shunga undaydi, yo'naltiradi. Bu kuch, bu ehtiros—pafosdir”. Bu jonli ehtiros esa san'at mohiyatini tashkil etuvchi poetik g'oyadir”.¹ Adabiyotshunoslik lug'atlarida Belinskiygacha pafos faqat obyektga yo'naltirilgan bo'lsa, Belinskiydan boshlab u subyektini ham qamrab ola boshlagani aytiladi.²

Zamonaviy adabiyotshunoslikka oid kitoblarda pafos ma'no kategoriyasiga ko'ra subyekt-obyekt-adresat uchligini qamrab olmagan sababli bu termin o'rnida “badiiylilik moduslari”³ istilohini qo'llash taklif etilmoqda. Lekin, fikrimizcha, Aristotel ham ruhiy iztirobning tomoshabinda ham his uyg'otishi va pafos uni qabul qilish jarayonida ham ahamiyatga molik ekanligi e'tirof etadi. Gegel qarashi bo'yicha ham “pafosning tajassum toptirilishi san'at asarida ham, uning tomashabin(ya'ni san'at muxlisi—M.O.)tomonidan qabul qilinishida ham bosh masala”⁴ hisoblangan. Belinskiy esa pafos nazariyasiga ijodkor (subyekt) ijodini asosiy birlik sifatida kiritdi. Bulardan kelib chiqib aytish mumkinki, pafos ma'no kategoriyasi muallif ehtirosi—qahramon emotsionaligi—san'at muxlisi munosabatini ham qamray oladi. Belinskiy shoirning butun asarlarini kuzatish, baholash orqali ijodkor pafosini aniqlash mumkin degan qarashni olg'a suradi.

¹ Belinskiy V.G. Sochineniya Aleksandr Pushkina. -569-b.

² Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. -T.:Akademnashr, 2013. -221-b.

³ O'sha asardan. -220-b.

⁴ Olimov M. Hozirgi o'zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T.1996, -31-b.

Tanqidchilikning dastlabki vazifasini ham muayyan ijodkor pafosini tayin etishda ko`radi.¹

Munaqqid yuqoridagi fikrlari tasdig`i o`laroq “Pushkin yaratgan butun she`riyat pafosini poetik, badiiy artistic pafos” deb, Batyushkov she`riyatining pafosini esa “doimo she`riyat hamda lazzat nazokatining butun ardog`i, karashmasi bilan yo`g`rilgan ehtirosli hissiyot”,² bir so`z bilan aytganda lazzatlanish deb belgilaydi.

O`zbek tanqidchiligida ham muayyan ijodkor asarlari pafosini tadqiq etishda Belinskiy qarashlari nuqtayi nazaridan yondashilgan. Jumladan, Izzat Sulton Qodiriy ijodining umum ma`nosi—pafosni “zamonaviylik va badiiylik” deb ta`riflaydi.³

Biroq Mirzaahmad Olimov bu fikrlarga e`tiroz bildiradi. Sababi “ular yetarlicha konkretlashgan emas. Chunonchi, poetiklik, badiiylik va artistizm, deylik, Lermontov ijodiga xos emasmi?! Zamonaviylik va badiiylik, masalan, Qahhor ijodining bosh pafosini tashkil etmaydimi?!”

Alohida yozuvchi ijodining pafosini o`rganish uchun ham avval pafos nazaryasini kengroq ishlab chiqish kerak”.

Xo`sh, olimning o`zi keng tadqiq etgan pafos muammosiga oid fikrlari qanday edi? Avvalo, tadqiqotchi ilk qat`iy xulosa sifatida pafos kategoriyasining ma`no doirasi badiiy ijod hayotning uch jabhasi (subyekt-obyekt-adresat) bilan cheklanib qolmasligini qayd etadi:

“Pafos tushunchasi o`zi paydo bo`lgan ilk davrlarda ham badiiy faoliyatdagi pafosni anglatgan emas. Uni istifoda etgan ko`pdan-ko`p faylasuflar, estetiklar, adabiyotshunoslar va boshqa soha vakillari uni faqat badiiy ijodga taalluqli hodisa yoki xususiyat sifatida tushunmaganlar. Biz pafos tushunchasining o`sha ilk

¹ Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -T. 1996, -26-b.

² Belinskiy V.G. Adabiy orzular. -T.: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1997, -166-b.

³ Sultonov I.. Adabiyot nazaryasi. -T.: O`qituvchi, 1980, -163-b.

ma'nosini tiriltirish yoki saqlab qolish tarafdorimiz va shunga harakat qilgan mualliflarning qarashlariga ergashishni ma'qul deb bilamiz".¹

Bu ilk ma'noni saqlab qolish maqsadida olim Aristotelning "...Ishtiyoq, g'azab, qo'rquv, jasorat, adovat, quvonch, nafrat, qayg'u, hasad va rahmshavfqatni, umuman, huzur halovat va azob-uqubat yo'ldosh bo'ladigan hamma narsani men ehtiros deb aytaman",² degan fikrlarini keltirib, "real hayotdagi mana shu ehtiroslar ham estetik mohiyat kasb eta boshlasa, estetik ma'nodagi pafosga aylanib boradi"³, deydi.

Yana ilmiy ishning so'nggi bobida shunday xulosa chiqariladi: "Estetik mohiyatga ega bo'lsa, shaxs mulohazasi pafos hisoblanadi." Shuningdek, "Estetik mohiyatga ega bo'lgan va yuksak estetik ideallarni o'zida aks ettirgan har qanday konkret hissiy hodisa, har qanday konkret hissiy mazmun bu pafosdir."

Shundan kelib chiqqan holda "Pafos faqat tayyor badiiy asarni yoki badiiy ijod mahsulinigina emas, balki yaratish va qabul qilish jarayonlarini ham, umuman estetik idrok olamini ham qamrab oladi."

¹ Olimov M. Hozirgi o'zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.1996, -32-33-b.

² Aristotel. Nikomaxova etika. Aristotel. Sochineniya. V 4-x tomax.T.N.—M.: Msl.1983, -84-b.

³ Olimov M. O'sha asardan, -34-b.

1.2. Badiiy publisistikada pafos.

Badiiy publisistikada pafosning ifodalanishiga doir o'zbek jurnalistika nazariyasi tarixidagi asosiy manbalardan biri Ochil Tog'ayevning "O'zbek badiiy publisistikasi" kitobidir. Mazkur asarning "Yozuvchi publisistikasi" deb nomlangan I bobida "Tushuncha va obraz" deb atalgan qism mavjud.¹ Shu bo'limda yozuvchi publisistikasidagi pafos haqida to'xtalinadi.

Badiiy publisistika haqidagi bir necha olimlar fikri muqoyasa qilinadi va avvalo, badiiy-publisistika nima degan savolga javob izlanadi.

"Inson tafakkurining o'ziga xos ifodalanish usullaridan biri publisistikadir. Publisistikaning bosh xususiyati—fikir tushunchani mantiqiy muhokamalar tarzida ifodalashdan iborat".²

Tushunchaga, mantiqiy muhokamaga tayanish jurnalist-publisistning voqelikni bilish jarayonidagi asosiy vositasidir.

Biroq badiiy publisistika eng avvalo muallifning ichki "meni"dan kelib chiqib, voqelikka, ijtimoiy hayotga subyektiv munosabati asosida shakllangan fikr-mulohazalari ekan, "yozuvchi-publisist o'zini hayajonlantirgan ijtimoiy voqea va hodisalarni loqaydlik bilan quruq ifodalay olmaydi, albatta".³

"Shu sabab publisistika "tushuncha va emotsionallikning dialektik birligidan hosil bo'ladi. Va publisistikada "haqiqiy emotsionallikni vujudga keltiruvchi asosiy vosita obrazlilikdir".

Bu obrazlilik badiiy publisistikada so'z obrazi va badiiy obrazlilik tarzida namoyon bo'ladi. Bu xil asarlarni "yozuvchi publisistikasi, deb atash mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar "badiiy publitsistika", prozadagi siyosiy lirika" deb ham yuritadilar."⁴ O.Tog'ayev yozuvchi publitsistikasi deb atasa-da, badiiy-publitsistikaga faqat adiblar emas, so'z san'atkorlari tomonidan yaratilgan asarlar ham mansubligini e'tirof etadi. Jahon jurnalistikasi tarixida ham Proxov, Elsberg singari tadqiqotchilar obrazlilik publisistikaning tarkibiy qismidir, bunday

¹ Ochil Tog'ayev. O'zbek badiiy-publitsistikasi. -T.:Fan. 1973. -13-b.

² O'sha asardan, -13-b.

³ O'sha asardan, -15-b.

⁴ O'sha asardan, -18-b.

xususiyat publisistik asarlarning ichki strukturasi tashkil etadi degan qarashni olg'a suradi.¹

Elsberga ko'ra esa, badiiy-publisistikadagi obrazlilik ikki turlidir:- so'z obrazliliigi va manzarali obrazlilik.

“So'z obrazi publisistikaning deyarli barcha turlariga xos bo'lib, u “majoziy iboralar, mubolag'a istiora, o'xshatish, sifatlash, kinoya, qochiriq kabilar”² dan iborat.

“Badiiy obrazlilik esa biror “g'oyaviy muddaoni, publitsist fikrini yorqin ochib berishga xizmat qiluvchi hayotning ibratli tipik manzaralaridir”³. Bunday manzaralar esa asosiy g'oyani harakatga keltirishni g'oya emotsionallik kasb etib, o'quvchiga ham o'z ta'sirini o'tkazishni maqsad qiladi. Publisist bu obraz yordamida haqiqatni izlaydi, chunki uning asosini “badiiy asarlardagi singari voqelikning individual manzarasi, individual shaxs obrazi emas, mantiqiy muhokama tashkil etadi. Shu ma'noda publisistikaning pafosi haqiqatni bilish pafosidir. (Lev Kassil) Ochil Tog'ayev yozuvchi publisistikasida tushunchaning asosiy o'rin tutishini izohlab, bu tushuncha publisistik pafosga aylantirilgan obrazli tushuncha ekanini qayd etadi. Sababi bu tushuncha avtor qalb prizmasidan o'tib, obrazga aylanadi.

Ya'ni bu tushunchaga nisbatan avtorning o'z munosabati, subyektiv qarashi vujudga keladi. (Bu munosabat mazmuni esa tushkun (sentimental) ham, ko'tarinki yoki kulguli bo'lishi ham mumkin. Aynan mana shu mazmun ifodasiga ko'ra publisistik asardagi, umuman, badiiy asardagi pafosning u yoki bu turi namoyon bo'ladi.) Belinskiy ta'biri bilan aytganda, muallif bu tushunchani butun ma'naviy borligi bilan idrok etadi.

Ochil Tog'ayev badiiy-publisistikaning asosiy janrlari sifatida ocherk, feleton, yozuvchi publisistikasini ko'rsatib, kishi obrazi portret-obraz, ayrim psixologik kechinmalar ruhiy holatlar tarzida ham ifodalanishini qayd etadi. Publisist obrazi avtor monologi tarzida ifodalangan asarlar yozuvchi

¹E.Proxov. Publitsistika v jizni obshestva.-M.;-39-b.

²Ochil Tog'ayev. O'zbek badiiy-publitsistikasi.-T.:Fan. 1973, - 20-b.

³O'sha asardan. -21-b.

publisistikasida keng o`rin tutadi. U poetikadagi shior obrazi singari markaziydir”.<sup>1</sup> Tadqiqotimiz obyekti bo`lmish Halima Ahmedova ijodida muallif monologi tarzida ifodalangan badiiy-publisistik asarlar, shuningdek, suhbat-intervular ham bisyor. (“Xudbinlikka qurbim yetmaydi”. “Yoshlik” jurnali. 2012, N9,3, “Mukofot”- “Karvon qong`irog`I” gazetasi.) Bu asarlarda ijodkorning boy ichki dunyosi, ruhiy olami namoyon bo`lishi bilan birga biror hayotiy manzarani qisqa tarzda bo`lsa ham akslantirish orqali umuman hayotga, qolaversa, ijtimoiy voqelikka bo`lgan munosabati ham ifodalanadi. ( Bu haqida kelgusi boblarda to`xtalamiz.)

Halima Ahmedova publisistikadagi pafos nafaqat mantiqiy mushohada orqali hayot haqiqatini bilishga yo`naltirilgan, balki fikr va his birligi yordamida o`z “meni”ni, o`z haqiqatlarini ham tadqiq qiluvchi pafos, nazdimizda.

¹Ochil Tog`ayev. O`zbek badiiy-publitsistikasi.- T.: Fan.1973, -22-b.

II BOB. HALIMA AHMEDOVA LIRIKASIDA PAFOS SHAKLLARI.

2.1. Halima Ahmedova she`riyatida pafosning namoyon bo`lishi.

Adabiyot ilmda pafosning bir necha turlari qayd etilgan. Jumladan Mirzaahmad Olimov pafos quyidagi turlarini ajratadi: tragizm, komizm, dramatism, lirizm, geroika, romantika, sentimentallik ...

Dilmurod Quronov tomonidan tuzilgan “Adabiyotshunoslik lug`ati” da G.Pospelov pafosni qahramonlik, tragizm, sentimentallik, romantik, dramatism, satira va yumor kabi turlarga ajratganini ko`rsatadi”.¹ Qolaversa, mazkur lug`atda badiiylilik modusi sifatida ellegiyaviylilik, iddeliyaviylilik, sentementallik, komiklik, dramatism, tragizm kabilar alohida izohlab o`tilgan. Pafos dunyoga estetik munosabatimiz ifodasi ekan, mana shu subyektiv munosabatimiz mazmuni pafosning qay turga mansubligini aniqlashda asos bo`ladi.

Arastu tragediyaning ichki bo`linishida uch vaziyatni alohida ta`kidlab ko`rsatadi: mushkul ahvolning yuz berishi, to`satdan bilib qolish va ehtiros, ya`ni pafos. Arastu fikrlarini nisbatan to`ldirib, Gegel vaziyat (situatsiya), kolliziya (ziddiyat) va ular natijasida xarakterning namoyon bo`lishi pafosdir degan qarashda bo`lgan. Mana shu xarakterning qay shaklda, qay kayfiyatda namoyon bo`lishi pafos turlarini farqlashga imkon beradi. Demak, bizning olamga subyektiv estetik munosabatimiz biz tushib qolgan vaziyat, real voqelik va ichki kechinmalarimiz o`rtasidagi kolliziyaga ham bevosita bog`liqdir. Masalan;

Kuz hayol faslidir, garchi, u mayin
Xazon shamshirida yengar bog`larni,
Qo`llarini bog`lab olib ketadi
Sirli zindoniga yoshlik chog`larni.²

Mazkur satrlarda ijodkorning kuzga, umuman, yoshlik chog`larini olib ketadigan vaqtga nisbatan isyoni “ma`yus his-tuyg`ularda, g`am anduhlarda namoyon bo`luvchi ruhiy holat atsviriga duch kelamiz.”<sup>3</sup> Va she`rning “ Shuncha yashab, esiz shuncha yil yashab, bir o`jar yurakni mahv etolmadim” tarzida

¹Qur'onov, D, Mamajnova, Z, Sheraliyeva.M. Adabiyotshunoslik lug`ati. T.: “Akademnashr”. 2013. -220-bet

²Ahmedova H. Umid soyasi. -T.: Nihol. 2008, -141-b.

³Ochil Tog`ayev. O`zbek badiiy-publitsistikasi. -T.: Fan. 1973, -40-b.

tugallanishi bizda muallifga nisbatan achinish hissini paydo qiladi. Muallif tuyg`usining qalbimizdagi hissiy olam bilan kolliziyaga kirishi natijasida hosil bo`lgan bunday kechinma sentimental pafosga misol bo`la oladi.

Pafos turlari estetikaning markaziy tushunchasi bo`luvchi estetik kategoriyalar bilan chambarchas bog`liq. Pafos turlari voqelikka estetik munosabatimizni abstrakt mohiyat sifatida to`liq tasavvur qilishimizga yordam beradi. Masalan, gulni ko`rib, uning go`zalligiga maftun bo`lsak, bu—lirik pafos. Gul o`z-o`zicha bizning munosabatimizsiz ham go`zal edi. Gulning go`zalligi estetik kategoriya sifatida o`z mohiyatiga ega edi. Bizning subyektiv munosabatimiz qo`shilishi bilan pafos vujudga keldi. Estetik kategoriyalarni hodisalarning mohiyati qiziqтира, pafos mana shu estetik kategoriyaning turli hayotiy bosqichlarini o`rganadi.¹

Estetikaning markaziy kategoriyasi bo`lmish nafosat, ya`ni go`zallik kategoriyasining hodisa sifatidagi hayoti voqelikning dramatik, komik, tragik, sentimental ko`rinish kasb etishida muhim ahamiyatga ega. Real voqelikda go`zallikni vujudga keltiruvchi uyg`unlik va mutanosiblik buzilar ekan, pafosning yuqorida sanalgan turlari vujudga kelishiga asos bo`ladi.

Pafosning turlari haqida gapirar ekanmiz, bevosita ular nimasiga ko`ra bir-biridan farqlanadi va qanday vujudga keladi degan savol paydo bo`ladi. Biz bu savolga javob qidirish orqali Halima Ahmedova she`riyatida namoyon bo`luvchi pafos turlarini ham tahlil qilib ketishni maqsad qildik.

Avvalo, lirik pafos haqida.

Aytib o`tganimizdek, pafos muammosini ilk bor jiddiy tadqiq qilgan Mirzaahmad Olimov tadqiqotining turli o`rinlarda lirik pafosga qisqacha ta`riflar berib ketgan: masalan, “ yashnab turgan gulni ko`rib dilimiz yayrasa—bu lirik pafos” .² A.S. Pushkinning “ Ya pomnyu chudnoye mgnovene” deb boshlanuvchi she`ridagi ayol go`zalligi va u qoldirgan taassurot go`zaligiga shaydolikni ham olim lirik pafos deb baholaydi. Mana shu ta`riflarga asosan Halima Ahmedova

¹Ochil Tog`ayev. O`zbek badiiy-publitsistikasi. -T.:Fan. 1973,- 39-b.

²O`sha manbadan . -38-b.

she`riyatidagi go`zallikni tahlil qilar ekanmiz, lirik pafos tabiat manzarasiga, ishqqa, insonning nurday toza, botiniy bir pokligiga oshuftalik tarzida aks etganiga amin bo`lib bordik:

Boshingni yurakning qiblasiga qo`y,
Rayhon nafasiga chayib vujuding.
Pok bo`lsin, pok bo`lsin, nurlar kabi pok,
Payg`ambar tushidek yashil sujuding.
Buloqlarning shaffof xayolini ol,
Qayg`uni kuldiringin, baxtni yig`latmay.
Ko`zingni kenglikka sadaqa qilgin,
Do`st-u dushmaningga...
Hech kimga aytmay.
Oshiq bo`l musaffo borliq qo`ynida
Ko`ksinga nurlarning shavqi botganda.
Ayniqsa, muazzin—tongning qushlari
Xudoning “ko`nglini” o`qiyotganda... ¹

Yoxud:

Atir sepib chiqqan tannoz bog`larning
Dimog`im to`ldirar muattar bo`yi.
Yomg`irlar childirma chalar go`yoki
Boshlanar zamin-u, osmonning to`yi.
Yalpizning mastona xayoli bilan
Qulog`imni o`par suv taronasi.
Va sochim taraydi tong tarog`ida
Shabboda—gullarning dilkash onasi.

Shoiraning she`rlaridagi bunday oshuftalik, jo`shqinlik bilan yo`g`rilgan lirik pafos ko`pincha ma`yus kayfiyat tusini ham oladi. Masalan, yuqoridagi she`r shunday band bilan tugaydi:

Ufqlar ortida, Semurg` patida

¹Ahmedova H. Umid soyasi. -T.: Nihol. 2008, -22-b.

Go`zal kunlar meni ko`rib yotar tush.

Barcha yo`lim ravon, hamma narsam bor,

Faqat ko`nglim bo`m-bo`sh, o, ko`nglim bo`m-bo`sh.

Halima Ahmedova she`riyatida ham Pushkinning yuqoridagi she`ri singari o`tgan kunlarning go`zal taassurotini ifodalovchi, sentimentallikka yo`g`rilgan bo`lsa-da, lirik pafosli she`rlar uchraydi. Shulardan biri “Ro`mol” she`ridir.

...Qancha yillar o`tdi, fasllar o`tdi,

Goh sezdim, sezmadim tarovatini.

G`amning ayozidan junjikkan paytim

Qo`msayman shu ro`mol haroratini.

“Umid soyasi” to`plamiga kirgan “Boshdan oyog`im nur...” deb boshlanuvchi she`rni ham lirik pafos ifoda etilgan she`r namunasi deyish mumkin. Lirik pafos ijdkorning nasrdagi asarlari va badiiy-publisistik ijodida ham tabiatiga, umuman, atrofdagi olamga oshuftalik, maftunlik sifatida yuzaga chiqadi. Yana bir e`tiborli jihati shuki, nasriy asarlarda ifodalangan sentimentallik, tragiklik, dramatism ortida ham mana shu qahramonlar qayg`usiga, ishq iztorobiga shaydolik mavjudligini ilg`ash mumkin. (“Ishq gulining hidi”, “Anjir daraxtining xudoga to`rt maktubi”, “Kutishning sarg`aygan fasli”, “Yosuman gulining soyasi”, “Yovvoyi tanovar” hikoyalarida buni ilg`ash mumkin.)

Halima Ahmedova ijodida, ayniqsa, she`riyatida keng o`rin tutuvchi, namoyon bo`luvchi pafos turi, bu—setimentallikdir.

“Asosiy estetik kategoriyalar ichiga isyoni faqat ma`yus his-tuyg`ularda, g`am-anduhlardagina namoyon bo`ladigan go`zallikni maxsus ifodalaydigan tushuncha yo`q. U faqat pafos nazariyasida ishlab chiqilgan. Bu—sentimentallik.” Pafosning mazkur turiga Mirzaahmad Olimov xuddi shunday ta`rif bergan va fikrini bir necha misollar vositasida quvvatlaydi: Masalan, gulni ko`rib, “Essiz, shunday go`zal narsa-yu, kuzda ochilibdi-da, erta indin xazon bo`ladi”, deb o`ylasak , bu—sentimental pafos” yoxud “tole yulduzi shunchalar porloq bo`lib ko`ringan uchqur xayolli norasida go`dak Mo`min Mirzoning zarra gunohi

bo`lmay turib toj-taxt kurashlari girdobiga g`arq bo`lganiga g`oyibona guvoh bo`lsak, ko`zlarimizga yosh qalqsa—bu sentimental pafos”.

Misollardan ko`rinadiki, birinchi ta`rif asosan badiiy asardagi subyekt, ya`ni ijodkorning sentimental pafosi haqidadir va bu pafos hayotdagi achinish hissini anglatuvchi sentimentallikdan biroz farq qiladi. Sababi u faqatgina achinish tuyg`usi emas, balki isyonning g`amgin ko`rinishi sifatida ifoda topadi. Bu isyon hayotdagi go`zallik o`z garmoniyasini yo`qotib, yangi garmoniya uchun kurasha olmay, qattiq mung-anduhlarga chulg`anish”¹ tajassumidir.

Lug`atda sentimentallik ko`proq subyekt--ijodkor bilan bog`liqligi, shu sabab u barcha o`quvchiga birday ta`sir qilmasdan, bu narsa ularning xarakter xususiyatlari, badiiy didi, dunyoqarashi bilan bog`liqligi ko`rsatiladi. Asardagi sentimental qahramon esa “qurbon” maqomidagi obraz sifatida baholanadi. “Sentimentallikda qahramonning mavjudligini idrok etgan holda uni namoyon qilolmasligi kuzatiladi”.<sup>2</sup> Halima Ahmedova she`riyatidagi sentimentallikka nisbatan ham M.Olimovning ijodkor sentimental pafosi haqidagi ta`rifini qo`llash o`rinli. Shoiraning “Armon” nomli she`ri shunday boshlanadi:

Umr ko`chalarin kezdin sargardon,
Charchagan yo`lchiday bugun karaxtman.
Ayovsiz, beshafqat kuzning qo`lida
Qurib borayotgan holsiz daraxtman.³

Ko`rinadiki umr ko`chalarin sargardon kezayotgan lirik qahramon “kuzda qurib borayotgan holsiz daraxt”—beshavqat hayot g`am anduhga chulg`agan uni. Ukasiga bag`ishlangan bu she`rning “Sening ham tushinga kirarmi, aytgin, Onamning qabrida yig`lagan yulg`un” tarzida tugallanishi she`rdagi sentimental kayfiyatni, pafosni yanada bo`rtiradi.

Mana yana bir she`r:
Baxt nima u degan bitta savolga

¹Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.1996,-4o-b.

²Quronov. D, Mamajonova. Z, Sheraliyeva. M. Adabiyotshunoslik lug`ati. -T.: “Akademnashr”. 2013, -276-b.

³Ahmedova H. Umid soyasi. -T.: Nihol. 2008, -44-b.

Yarim asrdirki, izlayman javob.
Yuragim o`rniga aksiga olib
Xudo solib qo`ymish bir hovuch azob.
Kelganimda edi odam bo`libmas,
Qushmi yo maysami, yomg`ir bo`lib gar
Yarim asrlik bu ko`hna savolga
Javob topa olgum edi muqarrar.
Balki nodonligim pand berdi menga
Ko`ksimdagi azob hech tinch qo`ymaydi.
Meni aldayotgan yillarga boqib,
Negadir baxt so`zin jinim suymaydi.

Azobi tinch qo`ymayotgan, yuragi ham bir hovuch azob bo`lgan shoirga nisbatan o`quvchi bir hamdardlik iztirobini chekadi. Bu sentimentallik o`quvchiga ham ko`chadi.

Halima Ahmedova she`riyatida dramatik pafos mazmunini o`zligini boshqa bir “men” bilan munosabatda namoyon etuvchi, o`zgalar nuqtayi nazariga, ba`zan muhit va unda shakllangan ayrim qadriyatlarga qarshi turgan, boshqa bir “men” bilan ziddiyatnatijasida tug`ilgan kechinmalar tashkil qiladi:

Juda go`lman, juda befahm
Ishonaman, kim nima desa.
Hatto daraxt bo`lishni aytib
Aldab qo`yar kichkina maysa”.
Ga`nimlardan shikoyatim yo`q,
Do`stlar meni aldadi yomon.
Garchi umid, orzularimni
Mehr bilan etganman ehson...
Men ham endi anoyi emas
Hayot meni aldama sen ham:
O`sha kunga yetub borguncha
O`lmaysan, deb,

Avval ich qasam.¹

Yoxud “Tanazzul” deb atalgan she`rning quyidagi satrlarida:

“Odamlar hayiqib etar tomosha
Ko`ngilning o`limin, qalbning o`lishin.
Anglashmaydi ofat xanjarin tutgan
Rahmonning qo`limi, shayton qo`limi?
Ularga baribir kun ko`rsa bo`ldi

Jodugar asrning cho`ng soyasida”² — deya zorlanib, ijodkor kechinmalari atrofidagi muhit qadryatlari bilan ziddiyatga kirishadi va u dramatik pafos tarzida aks topadi.

Qolaversa, bu she`riyatda o`lim bilan kurashib, qalbda dramatizm yuzaga keltiruvchi hislar ham mavjud. Ular g`olib yoki mag`lubligidan qat’i nazar isyonida, kurashida bardavom:

Ehtirosi so`ngan borliq nigohi
Atrofga tikilar osuda va tinch.
Ammo isyon qilar o`limga qarshi
Tomirdagi qonda yam-yashil sog`inch.

Shoiraning “Shafaq ibodati” to`plamiga kirgan “Menga aytdilarki...” deb boshlanuvchi she`rida lirik qahramon ruhiyati bayoni orqali dunyodan, hayotdan, qismatdan yaxshilik kutib-kutib, oxiri hayot qismatga tikilgan qimorligini anglagan insonning betaskin iztiroblari chiziladi:

Yomonlik ortidan yaxshilik izlab
Hamon yashayapman goh sog`, goh bemor,
Faqat anglaganim shu bo`ldi, xolos,
Hayotim qismatga tikilgan qimor.

Belinskiy aytganidek, bu dunyoda yechilmaydigan, javobini topolmaydigan masalalar borki, ular qismat saltanatining, tragediya sohasining mohiyatini tashkil etadi. Shoiraning hayoti nega qismatga tikilgan qimor ekanini o`zi ham bilmaydi,

¹Ahmedova H. Umid soyasi. -T.: Nihol. 2008, -10-b.

²Ahmedova H. Nihol qiblası. -T.: G`ulom nomidagi NMIU. 2011, -35-bet.

lekin shundayligini idrok etadi. Mana shu anglangan haqiqat ijodkor ko`nglidagi olam bilan mangu ziddiyatda. Lekin uni ham eshitishning, hatto sababini bilishning ham ilojisi yo`q. Chunki ularga bu dunyoda topgan javobimiz to`liq, asosli bo`lmaydi. Shunday holatda qalbimizda nega shunday degan isyoniy savol tug`iladi, ruhimizni “dunyoning noto`kisliklariga qarshi g`alayon” qamrab oladi. Shoirda paydo bo`lib, so`z orqali bizning ham qalbimizni to`lqinlantirgan bu hissiyot tragik pafosga misol bo`ladi.

Halima Ahmedovaning “Quyoshli xotiralar” nomli badiyasini mutola qilish jarayonida Omon Muxtor, Normurod Narzullayev, Shuhrat domla kabi inson siymosidagi, botinidagi mavjud, kamtarinlik, insoniylik, ulug`vor ruhni ko`rib, beixtiyor bu yolg`onga to`la dunyoda ham shunday yaxshi bo`lmoq mumkin ekanda degan hayrat idrokimizni band etadi. Bu tuyg`u pafos ilmida qahramonlik pafosi deb ataladi. Qahramonlik pafosi odatda biror buyuk jasorat namoyon qilgan obrazlarga (masalan, Alpomish, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi) nisbatan mehr-muhabbatimiz ta`sirida vujudga keladi. Biroq eng katta jasorat, eng katta pahlavonlik insonning o`zini yengishi ekanini inobatga olsak, yuqoridagi insonlar shaxsiyatidagi fazilatlar tufayli bizda paydo bo`lgan hisning, olqishning bejiz emasligini anglaymiz.

Umuman, she`r bu inson ichki olamining rango-rang tasviri ekan va bir soniyaning o`zida goh qayg`uli, goh sevinchga yo`g`rilgan hislarni boshdan kechirar ekanmiz, bu narsani she`rda ham o`z aksini topishi tabiiy: boshlanishida bizga lirik kayfiyat bag`ishlab turgan she`r yakuniga borib sentimentallik uygotishi yoxud sentimental kayfiyat dramatik pafosga ham aylanib ketishi mumkin. Chunki “qalb”—o`zgaruvchan ekan, har lahzada turli tuyg`uni his qilish also ajablanarlimas. Biz Halima Ahmedova she`riyatidagi pafos turlarini tahlil etish jarayonida ko`plab misollarga duch keldik. (Masalan, lirik pafos namunasi sifatida ko`rib o`tganimiz—“Ro`mol” she`ridagi tuyg`ular yakunda sentimentalikka o`tib, bizda qandaydir anduh paydo qiladi.) Shunday ekan, faqat bitta she`rda aynan bitta pafos turi ham, bir necha pafos turi ham mavjud bo`lishi mumkin degan o`yga

bordik. Bu ham, albatta, she`rdagi kechinmaning bizda uyg`otadigan kayfiyati bilan bog`liq.

2.2. Pafos va lirik ifoda.

Badiiy adabiyotning va badiiy publisistikaning ham asosiy materiali soʻz. Ifodalanayotgan fikr, obrazlar mohiyati soʻz orqali inʼikos topadi. Soʻzning qanday holatda va qay shaklda qoʻllanishi ijodkor kechinmasini, asar gʻoyasini toʻgʻri aks ettirishda eng muhim vosita. Pafos turlarining ifoda topishida soʻz va unga omuxta qilingan ohang birlamchidir.

Yuqoridagi fikrlar isboti uchun olim Mirzaahmad Olimovning “Yomgʻir yogʻyapti” birikmasini pafos nuqtayi nazaridan qilgan tahliliga eʼtibor qaratmoqchimiz. Agar bu birikma uchrashuvga chiqqan oshiq-maʼshuq holatini ifoda etayotgan boʻlsa, lirik yoki romantik ohangga ega boʻladi, agar abadiy firoqda oʻrtanayotgan inson hissini ifoda etsa, bu jumla “qandaydir bir sentimental tuygʻuning, dramaning yoki hatto fojeaning toʻlgʻanishlarini oʻzida ifoda etishi mumkin”.

“Abdulla Oripovning “Oʻzbekiston” sheʼridagi “Tashqarida izillar yomgʻir” satrida esa fojeaviylik nashʼu namo topgan.”¹

Lirik qahramon kayfiyatini aks ettirgan bunday jumlalarning oʻquvchi ruhiyatida ham shunga monand sezimlarni uygʻotishi pafosning u yoki bu turi yuzaga kelishida vosita boʻladi.

Halima Ahmedova lirikasining soʻz sanʼati namunasi sifatidagi oʻziga xosliklariga bir qur nazar tashlash barobarida pafos turlari soʻzining qoʻllanishiga muvofiq inʼikos topishini koʻrsatishga urindik.

Jumladan, “Kuzgi holatlar” turkumida “Daraxtlarning nolishi yomon botar jonimga” tarzida ifoda etilgan satrlar bor.

“Yomon botar” frazasi maʼnoni inversiya hisobiga kuchaytirib, sentimentallikka fojeaviy tus bergan. “Yomon” soʻzining uslubiy boʻyoqdorligi “botish”dagi ohangni yanada boʻrttiradi.

Derazamni nozik barmoqlarida

Ohista chertadi noziktaʼb nasim.

¹Olimov M. Hozirgi oʻzbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.1996, -73-b.

Samo oynasidan tushgan shu`lada

Sarobdek o`ynaydi baxtiyor aksim.¹

Mazkur banddagi lirik kayfiyatni “chertadi” so`zidagi nozik ohang bo`rtirib tasvirlaydi. Aynan bu so`z nasimning nozikta`bligi va “barmog`i nafis”ligiga o`z o`quvchisini ishontiradi. Nasim so`zining tilimizda juda ko`p sinonimlari bor: shamol, yel, sabo, shabboda, bo`ron...

Lekin ayni she`rdagi holatni tasvirlash uchun “nasim” so`zining ohangi munosibdir. Va shoiraning ham lirik kayfiyati nozikta`b nasimning derazasini ohista chertishiga monand: sokin va latif... Bu misralar she`rxon qalbida ham lirik ehtirosni kuchaytirib yuiboradi. Xuddi oshiq-ma`shuqlarning “yomg`ir yog`ar” deb shivirlashiga o`xshash.

She`ning yakuni:

Begona kunlarga afsunlab meni,

Tilingning uchida tutasan novvot.

Endi senga qanday ishonay, axir,

Kunimni ko`rsatib bo`lgansan, hayot,--deb tugallanadi.

“Azob bermoq” ma`nosidagi “kunini ko`rsatmoq” iborasi sentimental kayfiyatni dramaga, hatto tragik holat ifodasi darajasigacha ko`taradi.

“Pafos talabidan kelib chiqib, jumladagi so`zlarni o`zining doimiy yoki kontekstual, uzoq yoki yaqin sinonimlari bilan almashtirish mumkin”².

Asli xalqniki bo`lgan mazkur fraza shoir mahorati, inversiya hisobiga pafosni kuchaytirib, o`quvchiga ham ta`sir etish xususiyati oshirishga xizmat qilgan.

“Kuz holatlari” she`rida:

Ber deb yig`laydi shamol

Ko`zimning gavharini, — degan satrlar bor.

Yuqorida “shamol” so`zini nasim so`zining sinonimlari qatorida sanagan edik. Aslida “shamol” leksikasi uslubiy bo`yog`iga ko`ra neytral so`z.

¹Halima Ahmedova. Shafaq ibodati.-T.: Akademnashr. 2013, -22-b.

²Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.1996,-74-bet.

“... alohida olganda uslubiy boʻyogʻiga koʻra neytral boʻlib koʻringan soʻz va jumlar ham badiiy matnda ming bir ohangga yoʻgʻrilishi mumkin”.

Uning “yigʻlamoq” bilan birga qoʻllanishini poetik nutqqa xoslangani bilan bir qatorda sentimental pafosni yuqori darajaga ifoda etgan.

Mohirona qoʻllangan har bir ibora, sanʼatkorona foydalanilgan har bir soʻz pafosning qaysidir bir turini boʻrttirib, taʼsirliroq ifodalash vazifasini bajaradi. Baʼzan bir sinonimik qatarga mansub, lekin uslubiy boʻyogʻiga, maʼnoga yuklaydigan otsenkasiga koʻra farq qiluvchi soʻzlar sheʼrda ketma-ket, yonma-yon qoʻllanishi holatni boʻrttirib, ohangni baland pardaga koʻtaradi:

Aldadim, yolvordim, zor qaqshab oxir

Ruhimni ajaldan oldim qaytarib .

“Yolvormoq” qandaydir sentimental holat tarzini koʻrsatsa, “zor qaqshamoq” fojeaviy tus beradi va koʻngilda ham shunga monand tragik kechinma va hislarni jonlantiradi.

III BOB. HALIMA AHMEDOVA NASRIDA UMUMINSONIY VA MILLIY OMILLAR.

3.1. Halima Ahmedova ijodida qahramon pafosi.

Biz ishning birinchi bobida ko`rib o`tgan pafos borasidagi ta`riflar orqali Aristotel va Hegel badiiy asardagi pafosni qahramon pafosidan, Belinskiy esa butun asar mazmunini ichiga olgan muallif pafosidan iborat deb tushunganini xulosa qilishimiz mumkin. Mirzaahmad Olimov esa badiiy asar pafosi qahramonlar pafosi bilan muallif pafosining dialektik birligidan tashkil topadi deb hisoblash tarafdori. Qahramon pafosi va muallif pafosini olim quyidagicha izohlaydi:

“Belinskiy pafosni san`atkorning butun vujudini qamrab olgan va asarga ko`chib, uning ham butun borlig`ini charog`on etib turadigan poetik g`oya” yoki “ichki ehtiros” sifatida tushunishi—estetik fikr taraqqiyotining o`ziga xos yutug`i. Faqat uni “badiiy asar pafosi” yoki “badiiy asardagi muallif pafosi” deb aniqlashtirish kerak.

Asarda, bundan tashqari, nisbiy mustaqillikka ega bo`lgan qahramon pafosi ham bor. Badiiy asarning yaxlit pafosi yoki muallif pafosi qisman shu qahramonlar pafosida, qisman ularga munosabatda, qisman asarning butun voqeviy, intonatsion, uslubiy-lisoniy qurilishida, epik asarlarda, bundan tashqari, voqealarda ishtirok etmay turib, ularni hikoya qilib beruvchi roviy obrazining ovozida namoyon bo`ladi”.¹

Pafosning quyma ta`rifi deb atalgan Hegel ta`rifida ma`lum situatsiyadagi ziddiyat natijasida umuminsoniy kuchlarning individual xususiyatlar bilan omuxtalashib xarakterga aylanishini keltirgan edik. “Qahramon pafosi asosini ham umuminsoniy kuchlar yotadi va ular individual xususiyatlar bilan birgalikda xarakterni yuzaga chiqaradi. Qahramon ular yordamida xatti-harakatga qo`l uradi.

Asardagi pafos qahramon pafosi singari pafos hayotini emas, balki natijasini aks ettiradi. Mirzaahmad Olimov muallif pafosini o`rganish uchun ijodkorning

¹Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.1996, -58-b.

zohiriy va botiniy hayotini, unga impuls bergan butun madaniy, ijtimoiy hayotni, u bahra olgan barcha hayotiy va madaniy manbalarni markazida san'atkor turgan yaxlit jarayon sifatida o'rganib chiqish kerakligini ta'kidlaydi.

Biz mazkur fasldagi fikrlarni yanayam konkretroq yoritish, izohlash uchun Halima Ahmedovaning "Nurdagi qorong'ulik" nomli mo'jaz hikoyasi misolida imkonimiz yetganicha qahramon pafosi va muallif pafosini tahlil qilishga urindik.

Asarda bosh qahramon pafosi, qahramonga munosabat tarzi muallif pafosini o'rganishda asosiy omil bo'lishini inobatga olib tahlilga kirishar ekanmiz, boshlanishidanoq hikoya bosh qahramonga nisbatan bizda sentimental hissiy munosabat paydo qilishiga guvoh bo'ldik. Hikoya matni, roviyning voqeviy tasviri bunga asos tug'diradi : "Yerto'laning zahida orzulari mog'orlagan kimsa ma'nosiz nigohlarini shiftan o'tayotgan tomchilarga tikdi. Tomchilar kimsaning hissiz hislariday sap-sariq".

E'tibor bersak, qahramon orzulari mog'orlagani qalbimizni o'kinchga to'ldirsa, hislari o'lib qolgani bizda "bu qanaqa kimsa o'zi" degan savol paydo qiladi.

Mahkum kimsaning "suvarakni ohista qo'liga olib, oyoq uchida uzangancha ozodlikka to'la panjara ortiga qo'yib yuborishi" endi bizda unga nisbatan xayrihohlik uyg'otadi. Zeroki, matn kitobxonga "Tanla" deb ixtiyor beradi, lekin "Sen uni emas, mana buni tanlaysan!" deb ham qo'shimcha qilib turadi".¹

Kimsaning farrosh kampir bilan suhbatidan qahramon pafosini belgilashga asos bo'luvchi 4 moment boshlanganini ko'ramiz:

"-Nimaga o'tiribsan?

-Xotinimni o'ldirdim.

-Voy, noinsof, xotininiyam o'ldiradimi?

-Xiyonat ustida ushladim.

-Farzanding yo'qmidi?

-Haromisi qornida o'ldi.

-Nima-nima, hali ikkiqat xotinni ham o'ldiradimi. Seni osishsa ham kam".

¹ . Malchanova G.G. Semantika xudojestvennogo teksta.—T.: Fan, 1988, -89-b.

Voqeaning borish maromi va qahramonlar dialogidan qahramon pafosi pafosning hayotini emas, balki natijasini ko`rsatayotgandek tuyiladi. Ma`lum situatsiyada ziddiyatga duch kelgan (xotinini “xiyonat ustida ushlagan”) odamning qalbidagi umuminsoniy kuchlarning individual xususiyat bilan birikishi natijasida ayolni o`ldirish orqali xarakter yuzaga chiqqan.

Dialog bizga ayni shu pafos haqida informatsiya berayotgandek. Lekin hikoyada xarakter bo`lib nashu na`mo topgan bir voqea borki, qahramon obrazini to`laroq ochishga yordam beradi:

-“Gapirma-ey, uyatsiz, senda rahm degan narsa yo`q ekan-da?!”

-Nega endi? Men uni qattiq sevardim.

-Sevganingni o`ldirishga qanday qo`ling bordi?

-Men unga ishondim. Ammo u yaqin do`stim bilan don olishib yurgan ekan.

-Xotiningni emas, do`stingni o`ldirgin edi.

-Bu yerdan chiqsam uni ham o`ldiraman”.

Mahkum hali xarakterni yuzaga chiqarish uchun xatti-harakat qilmadi. Ammo “vaziyat, ziddiyat, umuminsoniy kuchlar va individual xususiyatlar ta`sirida qahramon ichki olamida kechayotgan jarayonlar ham aslida xatti-harakat yoki voqeadir”.¹

Demak, qahramon borlig`ini shunday nafrat qamrab olganki, bu ichki bir harakat “albatta, do`stimni o`ldiraman tarzidagi xarakterning yuzaga chiqishiga asos bo`lmoqda.

Qahramon pafosi asosini umuminsoniy kuchlar tashkil etishini aytib o`tdik. Gegel bu umuminsoniy motivlar “san`atning buyuk motivlari bo`lib xizmat qiluvchi abadiy diniy va ma`naviy munosabatlar: oila, vatan, davlat, cherkov, shon-shuhrat, do`stlik, tabaqa, inson sha`ni, romantik dunyoda esa, ayniqsa, or-nomus, muhabbat va hakovzolar” ekanligini yozadi. Biz ko`rib chiqqan hikoya asosida ham oila, inson sha`ni, or-nomus va muhabbat motivlari borligiga guvoh bo`ldik.

¹Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.1996, -59-b.

Hikoyaning voqeviy, intonatsion, uslubiy-lisoniy qurilishida va hatto roviy obrazining namoyon bo`lishida ham ichki bir ziddiyat qasoskor mahkum va undan bir nafratlangan, bir unga achingan kampirning dialogi borligini ko`rdik.

Zero, har qanday asar obrazlar vositasida muallifning hayot, inson va tuyg`ular haqidagi bir-birini inkor etuvchi bahsi, ichki dialogini ifoda etadi. Albatta, bularning birini oq, birini qora deb hukm chiqarish adabiyotning vazifasi emas. Zero, adabiyot “turli nuqtayi nazarga ega qahramonlarning “hayot-mamot jangiga aylangan muhobasasini ko`rsatish orqali har bir kitobxonni hayotning, inson tabiati, ruhiyati va taqdirining benihoya chigalligi va murakkabligidan ogoh etadi, inson va hayot haqida biryoqlama, yuzaki va o`ta tendensioz hukm xulosalar chiqarishdan saqlanishga chaqiradi.”¹

Albatta, har bir o`quvchi asar qahramoniga estetik idealning ko`p tomonlama mezonlari qarshisida o`z bahosini beradi, bu kitobxonning estetik didi va idealiga ham bog`liqdir. Qahramon va muallif pafosiga kitobxonning subyektiv tuyg`usi qo`shilsa pafos to`laqonli o`z hayotini yashagan bo`ladi.

Tahlilga tortgan hikoyamiz misolida qahramon pafosi asardagi umuminsoniy motivlarni belgilashda asos faktor degan xulosa ham chiqarish mumkin. Gegel aytganidek, har qanday asar maqsadi qaysidir umuminsoniy motivni yuzaga chiqarish uchun yaratilar ekan, Halima Ahmedova asarlarida inson sha`ni, muhabbat, or-nomus, do`stlik, xiyonat kabi motivlar ham birlamchi ekaniga guvoh bo`ldik.

Bundan tashqari an'anaviy lirik asarlarga xos bo`lgan “kutgan oshiq-kelmagan yor” motivi ijodkorning , nafaqat lirik , balki nasriy asarlarida ham asosiy sujet liniyani tashkil etadi. Bu motiv “ Fol”, “Kutishning sarg`aygan fasli”, “Ishq gulining hidi”, “Ajinaning tilla tarog`I”, “Ichimdagi odam”, “Yosuman gulining soyasi”, “Yovvoyi tanovar”, “Sulaymonning bog`I” kabi hikoyalarida asosiy yo`nalishni tashkil etadi. Shuningdek, Yosuman, Ajina kabi obrazlar muallif ijodining faqat o`zigagina xos bo`lgan motiviga aylangan bo`lib, ular inson

¹ Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.1996,-70-b.

orzulari bilan hisoblashmaydigan, faqat bu orzular ustidan kuladigan taqdirga ishora qiladi. “Shu o`rinda motivlarning tagma`noga ishora qilish funksiyasini ham ta`kidlash joiz. Jumladan, “yo`l”—kurashga, “yo`lchi”—kurashchiga, “yulduz”—maqsadga, “yor”—Haq, “oshiq”—Haq yo`lidagi so`fiyga ishora qiladi.”<sup>1</sup> Halima Ahmedova ijodidagi Ajina, Yosuman kabilarni ham shu asosdan kelib chiqib asoslash mumkin. “Daraxt” motivi ijodkorning ham lirik, nasriy va badiiy-publistik asarlarning barchasida tez-tez murojaat qilinuvchi motivdir. Bu haqda shoiraning o`zi ham shunday deydi:

“Hovlimiz ortidagi bog`--mening katta darsxonam edi. Balki menga adabiyotni shu bog`dagi daraxtlar o`rgatgandir. Har holda shuncha yil yashab hech qayerdan o`sha mo`jaz bog`imizdan topgan tuyg`ular shul`asini topolganim yo`q. Ko`p she`rlarimda daraxt obrazi uchrashi ham shu bilan bog`liq menimcha.”²

Ko`rinadiki, daraxt motivi muallif ijodida bolalik, tozalik va ehtimolki o`zlik sog`inchi hamdir.

¹ Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. –T.:Akademnashr, 2013, -181-b.

² Ahmedova H. Xudbinlikka qurbim yetmaydi. Yoshlik.2012. N9, -3-b.

3.2. Pafos—inson ichki olami ifodachisi sifatida.

Soʻz sanʼati, avvalo, insonshunoslik ekan, inson ichki olami timsollariga yoʻl topishsiz insonni mukammal tadqiq etib, uning obrazini asarda toʻliq akslantirib boʻlmaydi. Inson ichki olami tilsimi esa bevosita inson ichki “men”i bilan bogʻliq. Shu sabab har bir asar pafosi “inson xatti-harakatlari, oʻy-kechinmalari, orzu-intilishlarining ming bir rangda tovlanuvchi konkret koʻrinishlarini butun betakrorligi bilan gavdalandirish barobarida ularning umuminsoniy asoslarini, umuminsoniy motivlarini kashf etish demakdir”.¹

Biz bu faslda obrazlar oʻy-kechinmalarining konkret ifodalari qay tarzda aks etgani va pafosning asosi boʻlishi “men”ning qanday va qay shaklda yuzaga chiqishini koʻrib chiqishni maqsad qildik.

Sababi inson xatti-harakati inson ichki “men”idan kelib chiqadi, “Men”ning qandaydir ehtiyojlarini ifoda etadi.

Gegel ham pafosni “insonning ichki “meni”da mavjud boʻlib, uning butun qalbini qamrab va chulgʻab oladigan muhim oqilona mazmun” deb taʼriflaganini keltirgan edik.

Inson “men”i xatti-harakatning motivlarini belgilashda asos boʻladi. Bu ichki olamda ziddiyatli motivlar ham yashashi mumkin. “Motivlardan qaysi birining gʻolib kelishini ichki dunyoda kechadigan uzoq va murakkab kurashlar (vaqt maʼnosida emas, ruhiy jarayonlar bosib oʻtadigan yoʻlning silsilaviy xarakteri maʼnosida), mashaqqatli ruhiy va aqliy mehnat natijasida roʻy beradi”.²

Halima Ahmedovanning “Ruh olmoshlari” hikoyasida ruh toʻlgʻonishlariga “Men”, “Sen” va “U” obrazlari orqali nazar solinadi.

“Men”— bu oʻzidan ajralib, hayolan hayotning sershovqin koʻchalarida nimanidir darbadar izlayotgan ayol siymosi. U jisman beholdek tasavvur uygʻotadi, ammo ruhan juda faol. Ruhan yolgʻizligini yengish uchun ham neder axtaradi, qidiradi, hatto tashqi olamga-da, mana shu ichki yolgʻizligi nuqtayi nazarida qiymat beradi: “...yoshgina oshiq-maʼshuqqa koʻzim tusharkan, nima haqda

¹Olimov M. Hozirgi oʻzbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.1996, -83-b.

²Oʻsha asardan, -105-b.

o`ylayotganimni esimdan chiqaraman. Ularga qorni och qolib sevimli taoming shirin hidi dimog`ini qitiqlayotgan odamdek entikib qarayman”.

Bu ichki yolg`izlikning yanayam quyuqlashib, teranlashib borishiga real hayotdagi voqeliklar ham o`z ta`sirini o`tkazadi:

“G`iyqillagan keskin bir ovoz yo`lning o`rtasida meni o`zimga keltiradi. Hashamatli moshina egasi esa boshini chiqarib so`kinadi:

-O`lging kelgan bo`lsa, boshqa joy izla, iflos, sening kasofatingga qolaymi endi?

Bir zum hushyor tortaman. Iflos dedimi? Nimadandir jahlim chiqqanday bo`ladi. Ammo zum o`tmasdan yana labimga loqayd tabassum sigir yeliniga yopishgan kanaday yopishadi”¹.

Aslida bu paytga kelib qahramon yolg`izligi qadr tilash, kimdandir (hatto dushmani bo`lsa ham) qadr ko`rish tug`yoniga aylanib bo`lgandi:

“Koshkiydi shu damda kimdir (hatto qattol g`ashim bo`lsa ham mayli) yo`limni to`sib chiqib, hol so`rasa...”

Qahramonning ichki dunyosi ruhiy notinchliklararo hayolan hayotni kezib-kezi, real hayotdagi o`z borlig`iga qaytadi, uni taftish qiladi va unga nihoyatda rahmi keldi: “Men”ning o`z “men”i bilan suhbatida o`z hayotini, o`z yolg`izligi sababini taftish qilayotgan, qidirayotgan inson obraziga duch kelamiz:

“-Nima adashib qoldingizmi?

-Adashganimga ancha bo`lgan.

-Nimadandir xafamisiz?

-O`zimdan xafaman.”²

Hikoyaning “Sen” deb atalgan mo`jaz qismida endi “men” o`z-o`ziga “men” bo`lib murojaat qilmaydi, “sen” sifatida tepadan turib o`zini, hayotni tahlil etadi, manzaralarda shu aksni gavdalantiradi. “Sen”da nur obrazi orqali qahramon o`z-o`zi, butun umri, yoshligi bilan dialogga kirishdi:

“Nur senda kechayotgan holatni sezdi va yana tilga kirdi:

¹ Ahmedova H.Yosuman gulining soyasi. -T.:Akademnashr.2013, -105-b.

² O`sha asardan, -105-b.

-Meni tanimadingmi deyman.

Sen o`zingni qo`lga olishga urinding va xasta ovozda so`rading”

-Sen kimsan?

Nur sening yoshlikdagi ovozingda uzoq qahqaha urdi”.

Albatta, “sen” ham qahramon yolg`izligiga tepadan turib nazar solarkan, bularning hammasiga bois deb xatolar, adashishlarga qaytaveradi. Chunonchi Nur aytadi:

“Afsus, meni qadrlay olmading. Menga xiyonat qilding.

-Xiyonat, qanday xiyonat?!

-Arzon-garovga qayg`u, g`amlarni sotib olaverading. Senda shaffof bir ishq bor edi. Uni yolg`onning bir bo`sasiga sovg`a qilib yubording. Agar yodingdan chiqqan bo`lsa, mana, ko`r.

Oq nur bir aylanib, ko`zguga aylandi-da, sening o`tgan kunlaring bu ko`zguda aks eta boshladi”.

Ammo bir inson uchun xatolarini tan olish qanchalik og`riqli bo`lsa, bu qahramonga ham shunchalik og`ir:

“— Bas, bas yetar. Maqsading nima o`zi sening? Yo meni ajalimdan burun o`ldirmoqchimisan?”.

“Sen”ning yakunida qahramon ruhiyatida ziddiyat, kurashlar natijasi qat`iy bir fikr, ichki xatti-harakatdan o`sib chiqqan xarakterga aylanadi:

“— Hayotning ko`ziga qo`rqmasdan qara. Hayot kuchlilarni yaxshi ko`radi”.

Albatta, har bir insonga xos bo`lgan xususiyatlar orasida yashash, yashaganda ham ko`ngil tilaganidek, o`zdan rozi bo`lib yashash istagi hamisha yuragining tub-tublarida sergak yashaydi. Inson qancha gunohkor, xatokor bo`lmasin, jismi ham ham yashash uchun zaiflashib qolganidan qat`i nazar hayotni suyadi, yashagisi kelaveradi. Hayotga ma`lum vaqtga kelib, manziliga qaytib ketishni unutgan Sizifday inson o`z-o`zicha yashashni, hayotni tashlab ketgisi kelmaydi. Garchi “Sen” qahramoni o`z tanholigi ichra yashash uchun “yilt” etgan umid ko`rmasa ham, hayolan bolaligi, nur vositasida o`zini ruhlantiradi. O`zi istganidek yashashga chog`lanaveradi.

M.M.Baxtin “insonning abadiy tabiati” dagi toʻrt ustun sifatida: “oʻz jonini saqlashga intilish, gʻalaba va tantana qilish ishtiyoqi, kimgadir va nimagadir ega boʻlishga moyillik va hissiy muhabbatni koʻrsatib oʻtadi.

“Sen” qahramonida oʻz jonini saqlash xohishi ostida ruhning oliy ehtiyojlari— oʻzidan rozi boʻlib yashash, hayotning koʻziga tik qarash uchun jurʼat topish singari intilishlarning ham borligiga guvoh boʻlamiz.

Aslida har bir tirik mavjudotda jonini, hayotni asrash istagi va instinkti mavjud, lekin inson tabiatdagi bu ishtiyoq oʻzining ruhiy ehtiyojlar talabidan kelib chiqishiga koʻra farqlanadi.

Hikoyaning “U” qismida endi qahramon, uning ruhiyati ham bizdan uzoqlashayotgandek tuyiladi. Endi qahramon shamol bilan birga. U vositasida hayotga, odamlarga boqadi, ularning hayotini kuzatadi. Qabristonga yoʻl oladi. Ming afsuski, bu yerda ham qahramonga oʻxshab hayotdan qadr topmaganlar, topmagach, bu istak isyonga aylanib oʻlim vosita xarakter boʻlib naʼshu topgan insonlar ruhi notinch, behalovat izgʻib yuribdi:

“—Seni bu yerda yashashga nima majbur qildi?

— Oʻzim, —dedi bola pushaymonligini oshkor etmoqchiday.

U razm solib bolaga qaradi, shundagina bolaning boʻynida qolgan arqon izlarini koʻrdi.

-Nega, axir, bunday qilding?!

-Qadrimni oʻtkazmoqchi edim.

-Xoʻsh, oʻtkaza oldingmi?

-Bir yilcha eslab yigʻlab oldinga kelib yurishdi. Ammo keyin hamma doʻstlarimning yodidan chiqdim. Bilasizmi, sinfimizda juda goʻzal qiz bor edi. Uni yaxshi koʻrardim. Ammo u menga qiyo ham boqmasdi. Men uchun kuydimi-yoʻqmi bilmayman...”

Belinskiy har bir goʻzal narsa oʻz qadr-qimmatining qurboni deydi. Inson tabiatning oliy gultoji sifatida hamisha hayotdan qadr kutadi, oʻz munosib bahosini topishni xohlaydi.

Mirzaahmad Olimov bir odamga kerak boʻlgan bori intilishlarni Deyl Karnegi sanab oʻtgan istaklar vositasida koʻrsatar ekan, inson intilishlari ichida “oʻzining ahamiyatdorligini sezib-anglab turish” istagi ham ustuvorligini taʼkidlaydi.

Gegel ham inson shaʼni, qadr-qimmatini pafos motivini belgilovchi kuchlar sifatida qayd etganini keltirgan edik.

Mazkur fasl avvalida pafosni inson ichki “men”ida mavjud boʻlib, butun qalbini qamrab oluvchi mazmun degan qarash haqida ham soʻz borgan edi. Shundan kelib chiqib, “Ruh olmoshlari” hikoyasida ijodkor yoki bosh qahramon borligʻida, tabiiy xususiyatlarida qadr topish, izlash tilagi borligini, bu qondirilmagach u yolgʻizlik boʻlib, bola qismati timsolida esa oʻlim tarzida qaror topganiga guvoh boʻldik. Qahramon borligʻini gurlatgan oqilona mazmun esa bu oʻrinda xatokorlik—qadr topish ilinjida xato qilish va xato qilgandan keyin ham qiymatlanishga, qadrlanishga intilaverish ishtiyoqi.

Yana bu yerda doʻstlarni niqobsiz koʻrish va ruhan, tashqi va ichki olamda ham toʻkis yashashga katta moyillik bor.

Pafos inson tabiatidagi umuminsoniy kuchlarni kashf qilish barobarida ruhing xilma-xil tovlanuvchi oʻziga xosliklarini haqiqatlarini ham aks ettirish dedik.

Nazarimizda, Halima Ahmedova asarlari ichki olamining bor kamchiligu toʻkisliklari bilan roʻy-rost namoyon boʻlishi asarning oʻquvchiga taʼsirini kuchaytiradi. Biz koʻrib oʻtgan hikoyada aslida qahramon aybdorligiga ichdan ishonsa ham, uni tan olmasligi, dushmanga ham dardini aytish istagi, ruhiy “men”ga real borliqdagi “men”ning sovuqqon munosabati, hadeb oʻzini taftish qilaverish, yolgʻizlik, xatolar yuki va ularning ostida turib ham hayotga intilaverish...Menimcha, bular ruhiyatda turfa xil kechinmalarning, oʻy-u fikrlarning haqiqiy, mohirona chizilgan aksidir.

IV BOB. HALIMA AHMEDOVA PUBLITSISTIKASIDA PAFOSNING O`ZIGA XOSLIKLARI.

4.1. Davr voqeligi va muallif pozitsiyasining publitsistik talqinlari.

Biz badiiy-publitsistikaga Ochlil Tog`ayev tomonidan berilgan ta`rifda uning bosh xususiyati— fikr, tushunchani mantiqiy muhokamalar tarzida ifodalashdan iboratligini ko`rib o`tgandik. Qolaversa, u tushuncha va emotsionallikning dialektik birligidan hosil bo`lishi, bu emotsionallik so`z obrazi va badiiy obraz asosida voqe topishi, shu bilan bir qatorda u borliqqa, ijtimoiy hayotga muallifning shaxsiy, subyektiv nuqtayi nazarini ifodalab, biror ijtimoiy fikr yoki og`riq, muammoga e`tibor qaratishi xususida ham so`z borgandi.

Bundan tashqari Muxtor Xudoyqulov ham badiiy-publitsistikani ijtimoiy-ijodiy faoliyat sanab, quyidagilarni yozadi:

“Badiiy-publitsistika hayotni adabiyot nuqtayi nazaridan yorituvchi ijtimoiy-ijodiy faoliyat hisoblanadi. Badiiy-publitsistika foydalanadigan adabiy-badiiy vositalar orasida obraz va obrazlilik o`rin tutadi”.¹

Badiiy-publitsistikaning xususiyati, ahamiyati va undagi obrazlilik haqida akademik B.Zohidov shunday fikrlarni aytadi:

“ Adabiyotning bir turi bo`lgan publitsistika o`zining xilma-xil ko`rinishlariga ega. Publitsistikaning o`zaro teng huquqli bo`lgan bu turlaridan ba`zilari davr taqozosi, konkret ijtimoiy sharoit talabi bilan matbuotda muhim rol o`ynashi mumkin. Umuman olganda, informatsion xususiyatga ega bo`lgan publitsistika emas, balki, emotsional, obrazli, badiiy estetik tuyg`u hosil qiladigan publitsistika birinchi o`rinda turishi kerak. Publitsistni maftun etgan mavzu kitobxonni ham hayajonlantirmog`i lozim. Publitsist bunday ta`sirchanlikka erishmoq uchun poeziya, proza va shu kabilar vujudga keltirgan badiiy tasviriy vositalarning hammasini, avvalo, obrazlilikni egallab olmog`i lozim”.²

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin:

¹Xudoyqulov M. Badiiy-publitsistika janrlari.—T.:Zar Qalam. -5-b.

²Zohidov V. Na shirokix rubejax sovremennosti.-T.//Korrespondent. N7, 1971, -30-b.

-demak, badiiy-publitsistika obrazlilik xususiyatiga ko`ra adabiyotga, ijtimoiy hayotni aks ettirish jihatidan jurnalistikaga tegishli bo`lgan, ularning o`rtasidagi soha;

-unda davr taqazosi va ijtimoiy sharoit talabi birlamchi;

-emotsionnallik va obrazlilik badiiy-publitsistikada pafosni vujudga keltiruvchi vosita, u yordamida o`quvchi hissiyotiga ta`sir o`tkazishga erishiladi;

- publitsist proza, poeziya va obrazlilikni mohirona egallagan san`atkor bo`la olmog`i lozim.

Publitsistikadagi obraz nima degan savolga javob qidirar ekanmiz, Elsbergning fikrlariga tayanib quyidagicha xulosaga keldik.

Publitsistikadagi obraz:

-manzarani aniq, yorqin ko`ra oladigan;

-hayotning ma`lum hodisalarini to`liq tasavvur eta oladigan darajada ifodalovchi;

-hodisaning asl mohiyatini oydilashtiradigan;

-voqelikni tushinish, aniqlash, baholash va yordam beradigan, o`xshatish, qiyoslash vositalaridan iborat”.¹

Bu obrazlilik ikki xil ko`rinishda bo`lishi: so`z obrazi va badiiy obraz bo`lib, ularning birinchisi publitsistikaning barcha ko`rinishlari, ikkinchisi badiiy adabiyotga xos manzarali obrazlilik ekanini yozgandik.

Bu ikkala obrazlilikka xos xususiyatlar Ochil Tog`ayev tomonidan mufassal bayon qilingan. Olimga ko`ra, so`z obrazi “sof publitsistika asarlariga nisbatan ustun darajada qo`llanib, ular mantiqiy muhokamaga ruh bag`ishlaydi:

-majoziy iboralar;

-mubolag`a;

-istiora;

-o`xshatish;

-sifatlash;

-kinoya, qochiriq;

¹Elsberg. Obraz v publitsistike. -M.//Covetskaya pechat. 1960, N10, -20-b.

-mashhur asarlardan olingan obrazlar;

-sitata va ko`chirmalardan iboratdir.”¹

Badiiy obrazlilik esa yozuvchi maqolasidagi obrazlilikning yuqori bosqichidir. Yozuvchi maqolasida konkret hayot manzarasi ham aks etadi va u ma`lum g`oyaviy muddaoni, publitsist fikrini yorqin ochib berishga xizmat qiluvchi hayotning tipik manzarasidir. Hayot manzaralari tasvirdan iborat bu elementlar:

- reportajnoma lavhalar;
- tugal mazmunli novella;
- psixologik portret;
- psixologik holat tasviri;
- obrazli xarakteristika;
- dialog, monolog, she`riy parcha va boshqa vositalardan iborat.

Bu ikki obrazlilik turi asosiy g`oyani harakatga keltirish vazifasini bajargani va biz birinchi bobning ikkinchi faslida bu g`oya pafos darajasiga ko`tarilgan poetik g`oya ekanligi haqida mutaxassislar fikri asosida so`z yuritgan edik. Bu g`oyaning badiiy asardagi g`oyadan farqi u mantiqiy muhokamani maqsad qilishi bilan izohlanadi.

Publitsist voqelikka har qancha subyektiv fikrini bildirmasin, quvonch-shodligi, g`azab, nafrati, mamnunligi yoki noroziligini, tuyg`ular silsilasini namoyon qilmasin, u birinchi navbatda, ijtimoiy shaxs. Badiiy-publitsistikadagi obraz ham aslida qalb prizmasidan o`tib, emotsional tus olgan hayotiy tushunchadir. Shu sabab u tushunchaga bo`ysundiriladi, fikr rivojiga qat`iy bo`ysunadi degan qarashlar bo`lgan. Jumladan, Muxtor Xudoyqulov shunday yozadi: “Publitsistikaning ijtimoiy-ijodiy to`qimasida mavjud bo`lgan siyosat, fan, badiiy ijod mahsuli bo`lgan obraz va obrazlilikka kerakli darajadagina o`rin beradi va u publitsistik asar oldiga qo`yilgan maqsad hamda chiqarilishi lozim bo`lgan ijtimoiy xulosaga xizmat qiladi”.²

¹Tog`ayev O. O`zbek badiiy-publitsistika.-T.:Fan. -20-b.

²Xudoyqulov M. Badiiy publitsistika janlari. —T.: Zar Qalam. -7-b.

Lekin Ochil Tog'ayev xulosalariga tayanadigan bo'lsak, obraz jamiyatning dunyoni bilish, mushohada etish xususiyatlarini shakllantirishdan iborat mustaqil funksiya ham bajaradi. Ya'ni badiiy obrazli element ilmiy-nazariy tafakkurga bo'ysunishdan tashqari hayot haqida tasavvur ham hosil qiladi, bu obrazlar o'quvchida faqat ijtimoiy-siyosiy tushuncha paydo qilib qolmasdan, san'at asaridagi singari voqelikni his etish, hissiy tushuncha va mushohada hosil qiladi. U hayotni hissiy tushuntirish funksiyasiga ega. Shulardan kelib chiqib, muallif quyidagicha xulosalarga keladi:

1.Tushuncha va obrazlilikning yaxlit bir butunligi yozuvchi publitsistikasining o'ziga xos janr xususiyatidir.

2.Yozuvchi publitsistikasida tushuncha yetakchi rol o'ynaydi. Biroq tushuncha publitsistik pafosga aylantirilgan obrazli tushunchadir.

3.Yozuvchi publitsistikasida so'z, ifoda obrazi bilan birga, badiiy manzara yaratuvchi bellestristik obrazlilikdan ham keng foydalaniladi.

4. Yozuvchi publitsistikasida obraz tushunchaning hissiy-emotsional ifodalanishiga yordam qilish bilan birga, mustaqil funksiya ham bajarib keladi. Yozuvchi publitsistikasida obrazli tasvir hayot haqida, odamlar haqida tasavvur hosil qiladi.¹

Biz Halima Ahmedova badiiy publitsistikasiga xos obraz va obrazlilikni, hayot voqeligiga munosabatini yuqoridagi nazariy qarashlarga asoslanib bayon qilishga harakat qildik. Mazkur bobda bayon qilinuvchi mulohazalarning tadqiqi obyekti sifatida ijodkorning turli matbuot nashrlarida bosligan "Xudbinlikka qurbim yetmaydi", "Quyoshli xotiralar", "Jigarrang kitob", "Mukofot", "Tunlarni bedor kutayotgan shoira", "Ko'ngil derazalari quyoshga qaragan yurt" nomli badiiy-publitsistik asarlarini oldik.

Ijodkorning "Quyoshli xotiralar"² nomli badiyasida asosiy ijtimoiy fikr o'tganlar, ayniqsa, yaxshilik deb yashagan insonlar xotirasi abadiy degan qarashga yo'naltirilgan.

¹ Tog'ayev O. O'zbek badiiy-publitsistika. -T.: Fan. 1973. -27-b.

² Ahmedova H. Quyoshli xotiralar. -T./O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2014. N19, -2-b.

Normurod Narzullayev, Shuhrat, Omon Muxtor, Botu bilan bogʻliq jonli xotiralar oʻquvchi koʻngliga taʼsir qilibgina qolmasdan, badiiy-publitsistikaga xos hujjatlilik, voqeaning chindan boʻlib oʻtganligini dalillash bilan haqqoniylikni taʼminlaydi.

Zeroki, badiiy adabiyotdagi voqea eng eng kichik detallarigacha hayotiy jihatdan dalillanishidan farq qilib, publitsistikada u chindan boʻlib oʻtgan voqea, hodisa, fakt sifatida bayon etiladi. Badianing boshlanishidanoq muallifning “hayollari yoʻlini toʻsib chiqqan bolalik xotirasi”, yaʼni badiiy obrazning biror hodisa yoki esdalik bayoni boʻlgan koʻrinishi yordamida xotira qudrati, oʻtganlar yodining oʻzlik uchun ham, kerak boʻlsa yurt uchun ham himoya vazifasini oʻtashi tʻoʻgʻrisidagi mulohaza keltiriladi: Unga koʻra, muallif qishlogʻida “Avilyo ota” deb nomlangan qabriston bor. Chingiz lashkari bostirib kelganda Avilyo ota “qoʻllarini koʻkka choʻzib hayqirganki, butun qishloq atrofini poʻlat devor qoplab olgan”. Mana shundan muallif qishlogʻi Poʻlat qishloq nomini oladi.

Badiiy publitsistikada muallif kategoriyasi birlamchi ahamiyatga ega. “Muallif kategoriyasini belgilaydigan omillardan biri esa bu yozuvchining tugʻilib oʻsgan oilasi va mahallasi hisoblanadi. Sababi oila, mahalla singari koʻrinishdagi kichik, mohiyat eʼtibori bilan yozuvchi dunyoqarashi, shaxsiyatining shakllanishida ulkan rol oʻynaydigan omillar, ijodkor “men”ga singib, bir butun organizmga aylanadi. Muallif kategoriyasini belgilaydigan uchinchi jihat esa psixik-arxetip boʻlib, u uch assotsiativ birlik— mif, afsona va irrotsinal tushunchalarning namoyon boʻlishidir. Aynan, ana shu jihatlarga koʻra publitsistikaning badiiy obrazi, uslubi boshqa ijodkorlar asaridan farqlilik kasb etadi.”¹

Muallif kategoriyasiga tegishli bunday xususiyatlarni Halima Ahmedovanning mana shu onda nogohon xotirasida tiklangan bayoni misolida ham koʻrish mumkin.

Badia davomida Omon Muxtor bilan bogʻliq reportajnamo lavha bor:

¹Qurbonova S. Yozuvchi publitsistikasining rivojlanish xususiyatlari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya -T.//2010, -23-24-b.

“Hanuz eslayman, yomgʻir sharros quyayotgan kun koʻchada uchrashib qoldik. Soyabonlarni xush koʻrmasligim bois usti boshim shalabbo edi. U yoʻq deyishimga qaramay qoʻlidagi katta soyabonni darhol menga tutqazdi. Oʻzi esa yomgʻirda qoldi. Omon Muxtor hayotda shunday edi”.

Yana shunday bir lavha: “Marmartoshda Gʻulomjon Aminjon ogʻli, degan yozuv bor. Har qanday hashamdan xoli bu bitik ustozning qanday yashab oʻtganidan darak berib turibdi”.

Bu lavhalar vositasida obrazli xarakteristika, shu bilan birga oʻzining asosiy vazifasi boʻlmish muallif qalbiga unutilmas xotiralarning muxrlanishida ularning shaxs sifatidagi, inson sifatidagi ulugʻvorligi asosiy sababligini isbotlash xususiyati, shuningdek, hayotda kamtar va insonparvar boʻlib yashashni oʻquvchiga hissiy tushuntirish, taʼsir oʻtkazishdek mustaqil funktsiya ham roʻyobga chiqqan.

Muallifning “Jigarrang kitob” maqolasidagi bobosining sandigʻini qoʻrib yotuvchi oq ilon, “Koʻngil derazalari quyoshga qaragan yurt” badiasidagi qishloq devonasi obrazlari ham aynana Halima Ahmedova badiiy dunyosiga, badiiy-publitsistikasiga xos boʻlgan psixik-arxetip unsurlaridir. Baʼzi oʻrinlarda obrazli-oʻxshatishlar yordamida yuzaga chiqadi: “Normurod Narzullayevda Qashqadaryo dashtlaridek kenglik va bolalarcha begʻuborlik bor edi”. Eʼtibor bersak, bu badiada ocherkka xos xususiyatlar boʻrtib koʻzga tashlansa-da, asosiy fikr, isbotlanmoqchi boʻlgan hayot haqiqatiga koʻra badiya xossalarini aks ettiradi:

“— Avilyosi koʻp yurti hech kim va hech narsa yengolmaydi”.

Mazkur misollarda koʻrib oʻtgan badiiy obraz va soʻz obrazlari, shuningdek, Normurod Narzullayev hayotidan kichik realistik novella, yakunda yechim tarzida ifodalangan sheʼr ham materialidagi obrazlilik salmogʻini oshirib borgan. Obrazlilik salmogʻining oshib borishi pafosni vujudga keltirishi xususida Ochil Togʻayev fikrlariga tayanib soʻz yuritgandik.

Muallif kategoriyasi bilan bogʻliq jarayonlarning materialda aks etishini kuzata turib, obrazlar shakllanishi, namoyon boʻlish tarzi va har bir ijodkor obrazining alohida tomonlari muallif kategoriyasi bilan ham boʻgʻliqligiga amin

bo'ldik. Muallif kategoriyasining biz yuqorida ko'rsatgan jihatlaridan tashqari milliylik deb ham atalgan xossasi borki, u har bir publitsist ijodida muhim o'rin tutadi. Publitsist o'z asarida turli ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy va axloqiy munosabatlarni qalamga olarkan, voqelikka baho berishda milliy dunyoqarash nuqtayi nazaridan yondashadi.

Davr voqeligiga nisbatan muallif pozitsiyasi subyektiv munosabat ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu subyektiv munosabat yozuvchining quvonchi, nafrati, tarafkashligi, betarafligi, xullas uning tuyg'ulari, uning kechinmalari orqali yuzaga chiqadi. Muallif subyektiv pozitsiyasi muallifning komik, satirik, dramatik, qahramonona yoki falsafiy pafosga yo'g'rilgan ifoda uslubini yuzaga keltirishda vosita bo'ladi. Halima Ahmedovaning "Xudbinlikka qurbim yetmaydi" maqolasida muallifning bugungi adabiy jarayonlarga subyektiv munosabati kuyinishi, achinish tarzida namoyon bo'ladi:

"Adabiyot maydoniga sof tuyg'ulari-yu orzulari bilan kirgan, kirayotgan ijodkorlarning bitta kitobi chiqar-chiqmas uch-to'rt betlab maqtovnoma-taqrizlarning chiqayotganini(ayniqsa, chiroyli ijodkor qizlarga) qaysidir ma'noda ularning ijodiga suiqasd deb o'ylayman. Adabiy tanqidchiligimiz bugun ko'zni kattaroq ochsa yaxshi bo'lardi. Nazarimda, o'quvchilar ham, ijodkorlar ham, olovli, toza bahslarni, haqiqatdan suv ichgan taqrizlarni juda sog'inishgan".

Mazkur monolog tarzidagi suhbat-intervyuda fojeaviy ohangga yo'g'rilgan dramatik pafos ham qaror topgan:

"Ijodkorlar bir-birining ijodiga hasad bilan emas, havas bilan qarasa, bu qanchadan qancha yuksalishga yo'l ochgan bo'lardi. O'zingiz o'ylang, qachondir "xalq dushmani" deb otilgan, aslida esa xalqning chinakam do'stlari bo'lgan Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy, Fitratlarning umriga zavol bo'lgan hasad emasmi?!.."

Yana bir hayotiy misol lavhasida ham xuddi shundoq dramatik ohang yetakchilik qiladi:

"Ancha yillar oldin murg'ak bolam bilan ijarama-ijara yurganimda xushxabar eshitdim. Yozuvchilar uyushmasi uysiz-joysiz a'zolariga uy ajratibdi.

Do`ppimni osmonga otib xursand bo`ldim! Haqiqat bor ekan-ku! Darrov Yozuvchilar uysuhmasining o`sha paytlardagi mas`ullaridan birining qabuliga kirdim. U meni sovuq qarshi olib: “Halima, uyning o`z egasi bor, sen esa bu yerda izg`ib yurmasdan qishlog`inga ket, adabiyotga nima qilib bera olarding” dedi. Karaxt tortdim. Ruhim yer bilan bitta bo`ldi.

Qanchadan qancha iste`dodli yoshlar o`shanday undovli gaplarni eshitib, o`z qishloqlariga qaytishdi.”¹

E`tibor bersak, Halima Ahmedova ijodidagi dramatik pafos mazmuni odamlar va ular fe`lidagi illatlar bilan ziddiyat natijasidir. Shuningdek, bu ijodkor hayotiy misol, reportajnamo lavhalarni kuzatganlari emas, ko`proq o`z boshidan kechirganlari yordamida ifodalaydi. Bundan tashqari muallif zamon voqeligiga o`z haqiqatlarini tadqiq qilish vositasida nazar solidi. Biz ikkinchi faslimizda ayni shu xususiyatga to`xtalishni niyat qildik.

¹Ahmedova H.Xudbinlikka qurbim yetmaydi. T.// Yoshlik. 2012 N9, -3-b.

4.2. Badiiy publitsistikada muallif “men”i

Badiiy publitsistika voqelikka muallifning subyektiv munosabatini ifoda etarkan, albatta, mana shu qarashlar bayonida muallif pozitsiya, shaxsiyati va uning haqiqatlarini ham ko'rsatadi. Halima Ahmedovaning badiiy publitsistik materiallarida esa bu xususiyat o'z “men”i haqiqatlarini tadqiq etish barobarida ijtimoiy hayotga ham munosabatini ifodalash tarzida yuzaga chiqadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bu ijodkor publitsistikasidagi pafos ijtimoiy voqelikni bilish tadqiq etishga emas, balki o'z hayoti, ichki olami tahlili orqali hayot haqiqatini ko'rsatishdan iboratdir.

“Jannatmakon” jurnalida chop etilgan “Tunlarni bedor kutgan shoira” suhbat-intervyusi shunday boshlanadi:

“Bu hayotda o'ylab topilgan savollar ko'p. “Nega muncha mungli yozasiz?”, “She'ringiz qismatingizga aylanishidan qo'rqmaysizmi?” “Baxtlimisiz?” va hokazo. Bu savollarning barchasi mendan tashqarida. Men esa hamon ichimda yashayman. Faqat ko'nglimga haqdan kelgan: “O'zingni topdingmi?” degan savol meni g'ulg'ulaga soladi. Titratadi. Qo'rqitadi...”

Ko'rinadiki, maqola boshlanishidanoq “O'zingni topdingmi” degan bir fikr so'z obrazi vositasida g'oya sifatida ifoda etilmoqda.

“Yoshlik” jurnalida chop etilgan “Xudbinlikka qurbim yetmaydi” suhbat-intervyusining nomiyoq u “men” haqiqatlari tahlili natijasidagi xulosa ekani anglashiladi.

Ijodkorning o'z ichki olami haqiqatlarini tadqiq qilishda eng ko'p murojat qiluvchi vositasi— bolalik xotiralaridir.

“Bobom o'qigan g'azallar ohangi meni nimadir yozishga undardi. Qachonlardir kitob shaydosi bo'lganim rost. Dadam menga juda ko'p kitob olib kelardilar. Menga ajratilgan kichkina xona kitobga to'la bo'lardi. Negadir xonamga hech kimning kirishini xohlamas edim. Ba'zan ota-onamdan yoki

ustozlarimdan dakki eshitgan vaqtlarim yaxshi ko`rgan asarlarimning ichiga kirib berkingim kelardi.”¹

Muallif nima uchun bolalikka qayta-qayta murojaat qilishini quyidagicha izohlaydi:

“Qachonki ko`ngil kirlanib ketsa, bolalikning tozaligini qumsar ekan odam.”²

Mana shu izohning o`zida ham “men” haqiqatlarini tahlil qilish natijasi bo`lgan iqror bor: ya`ni ko`ngil kirlanib ketgan. Shu bilan birga muallif inson qachon bolalikni qumsashi haqidagi hayotiy haqiqatni ham o`z o`quvchisiga hissiy tushuntirib ketadi.

Ijodkorning bolalikka xos reportajnoma lavhalarida Mullo bobo, bobosi, onasi va qishlog`idagi devona obrazining ko`p uchrashiga guvoh bo`lamiz. Bu ham muallif kategoriyasining psixologik va estetik omillari bilan bog`liqligidan, nazarimizda.

“Mullo bobo bizga qo`shni yashardi. Doimo qo`lida kitob ko`tarib yurar, ba`zan bizga chaqirib o`qib berardi. Va so`ngra qayta-qayta ta`kidlardi:

— Bu Hazrat Navoiyning devoni. G`azallarining ga`mzasi bor.

Biz unda na g`azalni, na g`amzani bilardik. Mulla bobo kitobni erkalab yopardi. So`ng esa doim bir gapni takrorlardi:

— O`n yuzingni chapga burdim deguncha umr o`tarkan-ketarkan. Esiz-esiz”.

Ona obrazi muallifning o`z-o`zini taftish qilishida xatolarini ko`rsatib, aytib turuvchi inson sifatida gavdalanadi:

“O`jarligim, tantiqligimdan charchagan kezlari onam jahllanardi:

— Hali hayot seni shunday odam qilib qo`ysinki, o`zing ham hayron qolgin! Men ham bir gapdan qolmasdim:

— Nima, men odam emasmanmi?!

...Yo`q men odam bo`lmadim. Xatolarga o`ch Havvoligimcha qoldim”.¹

¹ .Ahmedova H. Xudbinlikka qurbim yetmaydi. -T. // Yoshlik N9 . 2012, -3-b.

² Ahmedova H. Tonglarni bedor kutgan shoir. -T. // Jannatmakon, 2013.N2, -22-b.

Inson ichki olamida turfa tuyg'ular mavjlanishi va ularning qaysi biri ma'lum situatsiyada xarakter bo'lib yuzaga chiqishi pafos maotivlarini belgilashini yozgandik. Yuqorida xatolarga o'ch Havvoligidan ozor chekayotgan muallif xulosasi ikkinchi bir materialda o'zgacha xarakter bo'lib nashu na'mo topgan:

“Hayotim davomida ko'p xatolar qildim. Ammo hasad qilmay yashash, haqiqatni sevish oldida bu xatolar hech narsa emas.”²

Bundan tashqari “men” haqiqatlarini tadqiq qilish orqali bugungi davr va davr insonlari ruhiyatiga ham obrazli psixologik xarakteristika yoki kichik lavhalar bayoni misolida chizgilar chiziladi:

‘Qishloqqa bir borganimda sinfdosh dugonam bilan ko'rishdim. U hech o'zgarmaganday ko'rindi ko'zimga. Faqat suhbat orasida nigohidan nozli bir armon o'tdi:

-Dugon, o'qib yaxshi qilgan ekansan. Mana shoira bo'lding, seni xalq taniydi.

Toshkentda katta shaharda yashaysan. Mazza-mazza senga mazza. Men esa qishloqning bir chekkasida ro'zg'or oila deb yashab qoldim.

Dugonam uzoq gapirdi. Uning to'kin va baxtli oilasiga havasim kelganini sezdi chog'I, menga dalda bergan bo'ldi:

— Xudo hammaga bir tomondan beradi. Turmushga yolchimagan bo'lsang, shoiraliging buning o'rnini bosadi...”

Bu qisqa parchada ham hayot dramatikligi haqidagi fikr, ikki insonning baxt haqidagi turfa tasavvurlari akslantiriladi.

Muallifning o'z tabiatini ochib berishga xizmat qiluvchi obrazli xarakteristika ham bisyor:

“Yillar tuyg'ularingni beshavqat duradgordek randalab boraverar ekan. Kimningdir oldiga qarz so'rab borganimda yoki o'g'limning qilgan aybi uchun uzr so'rayotganimda o'sha randaning og'riqli azobidan qiynalgan g'ururim chinqirig'ini eshitgandek bo'laman.”

¹Ahmedova H. Tonglarni bedor kutgan shoira. T. // Jannatmakon.2013. N2, -22-b.

²Ahmedova H. Xudbinlikka qurbim yetmaydi. T. // Yoshlik. N9. 2012, -3-b.

“Noshukr emasman. Yaratganning tiriklik degan ne’matidan hayrat izlayman, quvonch, yaxshilik izlayman. Ularni topaman ham. Tongning kaftidan tomgan bir tomchi nur bilan baxtiyor bo’laman. Ko’zimdan tomgan bir tomchi ko’z yoshiga qamalib o’zimni inkor qilaman.”

Halima Ahmedova badiiy publitsistikasidagi o’z haqiqatlarini tadqiq qiluvchi muallif pozitsiyasining yana bir g’oyaviy yo’nalishi “Adabiyotga nima qilib beroldim” yoxud “Men qanday ijodkorman” degan savolga javob qidirishda ham namoyon bo’ladi:

“O’zinga kelsak, “Adabiyot uchun nimadir qila oldimmi?” degan savolga haligacha javob topganim yo’q.”¹

“Yaxshimi, yomonmi, sakkizta kitobim chop etildi. Menda g’alati bir odat bor. She’rni bir nafasda yozaman-da qaytib o’qib ko’raman. O’zinga yoqqandek tuyuladi. Kitob bo’lib chiqqandan keyin mutloqa begonadek ko’rinadi.”²

“Ba’zida she’r yozish bachkanalikday tuyuladi menga. Go’yo ko’nglimni ko’chaga olib chiqib ko’z-ko’z qilayotganga o’xshayman. Balki boshqacha yozish kerakdir deb xayol qilaman.”

“Har tongda boshqacha yozaman, boshqacha yashayman deb uyg’onaman. Ammo ruhimning xonasini kimdir qulflab ketgandek bo’laveradi. Keyin esa jahlim chiqib qalamni uloqtiraman:

--Endi hech qachon she’r yozmayman. Men uloqtirgan qalamni ko’chalarda sarson yurgan armon yana qo’limga tutqazadi.”

Ko’rinadiki, Halima Ahmedova ijodidagi “men” haqiqatlarini bilishni ko’zda tutgan pafos adabiy, o’z hayoti va ijtimoiy va zamondoshlari haqiqatini ham (Omon Muxtor, Normurod Narzullayev, Shuhrat va bugungi adabiy jarayon va ijodkorlar borasidagi fikrlar) tadqiq etadi. Ulardan kelib chiqib muallif o’zi uchun ma’lum xulosalar chiqaradi. Bu xulosalarning ijtimoiy qimmati shundaki, u faqat muallifning o’ziga tegishli bo’lib qolmasdan, o’quvchiga ham ta’sir o’tkazish

¹ Ahmedova H. Xudbinlikka qurbim yetmaydi. -T. Yoshlik. N9. 2012, -4-b.

² O’sha asardan, -3-b.

barobarida o`quvchilarning estetik dunyoqarashiga ko`ra, ularning ham haqiqatga aylanishi mumkin.

Umuman, muallif “men”I davr voqeligiga nazar solishning, muallif pozitsiyasini anglashning va o`quvchiga ham ta’sir etishning birlamchi omilidir. Chunki “men” tadqiqidan o`tgan fikrlargina chinakam haqiqatga aylanadi, fikr va his birligiga erishiladi va asarda in’ikos topuvchi poetik g`oya ham “men” ning o`ziga xosliklaridan kelib chiqadi. Har bir ijodkorning voqelikka hissiy emotsional munosabati ham “men”ning o`ziga xosliklari bilan bog`liq.

Halima Ahmedova publitsistikasida dramatik pafos ko`proq uchrasa, demakki, ijodkor shaxsiyatida muhit, o`zga “men” bilan bog`liq ziddiyatlar kurashi boradi. Ijodkorning davr voqeligiga munosabatini ham shu nuqtayi nazardan baholash mumkin.

XULOSA

Har qanday ijodkor borki, uning tuyg`ulari tashqi olam yoki ruhiyat dunyosidagi evrilishlar ta`siri orqali larzaga keladi. Bu larza alal-oqibat ijodkorda to`kilish, ijod qilish ishtiyoqini paydo qiladi. Mazkur ruhiy to`lg`oqlar oniy yoki bir martalik ta`sirning natijasi bo`lib qolmasdan, u yillar davomida ham vujudga kelishi mumkin. So`z san`ati mana shu ta`sirning natijasi, ya`ni pafosni ifodalamoq uchun mavjud. Bu yerda yana Gegelning pafos haqidagi mashhur gapini eslash o`rinli. Har qanday asar u yoki bu pafos mtivini ifdalash uchun yaratiladi. Ijodkorga ta`sir etuvchi omillar orasida, ya`ni ijodkrning turmushi, hayoti, atrfdagilar ta`siri hamisha birlamchi bo`lib kelgan. Bu ta`sir ijodkor badiiy asarlarida olar tasviri (she`rda), obrazlar vositasida hayot ustidan chiqarilgan hukm tarzida nasrda va fikriy mushohada sifatida badiiy publitsistikada aks topadi. Publitsistikadagi pafos hayot haqidagi mushohadalarni bayon qilishga xizmat qilib qolmasdan, u ma`lum fikr uyg`otish va hayotni hissiy tushuntirishdek funksiyani ham amalga oshiradi. Bu yerda pafosga xos uch holat subyekt—obyekt—adresat birligining ro`yobga chiqishi kuzatiladi. Pafos haqida so`z borar ekan, uning ta`sir etish xususiyatisiz mavjud bo`lolmasligini ta`kidlash joiz.

Pafos so`z san`atida faqat ta`sir etishdan tashqari fikr va his birligi, badiiy asar g`oyasi, yozuvchi ijodining umumiy yo`nalishi va butun asariga singib ketgan ehtirosi kabi ma`no kategoriyalariga ham ega va bu so`z san`atidagi pafosda to`liq ro`yobga chiqadi . Shuningdek, badiiy-publitsistikada ham u tushunchaga bo`ysundirgan obrazlilik vositasida fikr va his birligini ifoda etsa, tushunchani obrazlilik vositasida poetik g`oya—badiiy asar g`oyasi darajasiga ko`taradi., uning hissiy-emotsional ta`sirini oshiradi. Jo`shqinlik, tushkunlik, fojeaviylik kabi ifoda yo`sinida yozuvchining voqelikka g`oyaviy-hissiy munosabatini ham yuzaga chiqaradi.

Halima Ahmedova ijodini biz ham shoir, ham yozuvchi va badiiy-publitsist ijdı sifatida tadqiq etdik va kuzatishlarimiz natijasida shunga amin b`ldikki, bu ijodkor ijodi nisbatan murakkab va serqirradir. Halima Ahmedovaning lirik asarlarida pafos shakllari tragik, sentimental, dramatik va lirik pafos ko`rinishi

, ifodasi tarzida namoyon bo`ladi. Garchi ijodkor uchun nazm va nasr bosh planda bo`lsa-da, ulardagi pafosning ko`pgina ko`rinishlari ijtimoiy holat, ijtimoiy ta'sir ifodasi bo`lib ro'yobga chiqadi. Halima Ahmedovaning barcha turdagi ijodiga shu narsa xoski, unda asosiy qahramon bu o`z-o`zini tadqiq etayotgan "men". Halima Ahmedovaning badiiy-publitsistikasidagi "men" haqiqatlarini bilishga y`naltirilgan pafos bevosita bugungi kun ijtimoiy insonining ham haqiqatlarini anglashga xizmat qiladi. Zeroki, publitsist shu davrning, shu ijtimoiy muhitning vakilidir.

Malakaviy bitiruv ishining asosiy qismida aytilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo`lsak, pafos so`z san'atining mohiyatini tashkil etadi. Halima Ahmedova ijodiga xos dunyoga hissiy-emtsional munosabatning mazmuni ko`pincha tushkun, ya'ni sentimentaldir. Bu mazmun, pafosning boshqa ko`rinishlari ham shoirning o`zigagina xos bo`lgan ifoda yo`sini, ohang va uslub bilan yuzaga chiqadi. Yuqoridagilar asosida shunday xulosa qilish mumkin:

— Halima Ahmedova ijodidagi qahramon pafosi muallif va asar pafosini ham ifoda etib, u xarakter tarzida na'shu na'mo topishi mumkin;

— Bu ijodkor ijodidagi asosiy motivlar "kutgan yor-kelmagan yor", "beshavqat taqdir", inson sha'ni, qadr-qimmatini motivlaridir. Bu motivlar Halima Ahmedova pafosi umuminsoniy asoslari bilan bog`liq;

— Halima Ahmedova ijodidagi pafosning milliy asoslari nasrida taqdir motivi asosida namoyon bo`lsa, badiiy publitsistikasida muallif kategoriyasini belgilovchi milliylik, psixik-arxetip omillari bilan yuzaga chiqadi;

— Davr voqeligiga munosabatning publitsistik talqini so`z obrazi va badiiy obraz yordamida ifoda topgan. So`z obrazi insonning ichki holatlarini akslantirish vazifasini bajarib, bu holat asosan tabiatga muqoyasa qilinadi. O`xshatish, istiora, majoz tabiatdan olinadi;

— Badiiy obrazga xos o`ziga xosliklar ichida kichik novella, reportajnamo lavhalarining ko`pligi va so`z obrazi yordamida ifoda topgan obrazli xarakteristika bu ijodkor ijodida yetakchi o`rin tutadi;

— Halima Ahmedova ijodidagi so`z obrazi va badiiy obrazlilik muallifning ichki olami haqiqatlarini tadqiq etishga bo`ysundirilgan;

— Pafosning oʻzagi “men” ekan u “men”ning butun brligi bilan namoyon boʻlishida oʻzining yuksak ifodasini topadi. Halima Ahmedova nasrida va badiiy-publitsistik asarlarida ham “men”ini chulgʻagan oqilona mazmunning butun boʻy-basti bilan qaror topganiga guvoh boʻldik. Ijodkorning tahlilga tortilgan nasriy va publitsistik asarlarida xatokorlik tuygʻusi ijodkorning butun vujudini qamrab olgani va qalbini qudratga keltirgan degan toʻxtamga keldik. Bu orqali Belinskiyning Gertsen ijodiga bildirgan munosabati va Ochil Togʻayevning bu haqdagi fikri yana bir bor isbot topdi.

— Publitsistning badiiy-publitsistik asarlarida yetakchilik qiluvchi dramatik pafos nasrida ham asosiy pafos koʻrinishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I. O'zbekiston respublikasi prezidenti I.Karimov asarlari:

1.1 Karimov I. Yuksak ma'naviyat—yengilmas kuch. -T.:Ma'naviyat, 2008. -176 b.

1.2 Karimov I. Eng asosiy mezon—hayot haqiqatini aks ettirish. www.mohiyat.uz. 2014.27.05. 11:06

1.3 Karimov I. Adabiyotga e'tibor— ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. -T.: O'zbekiston, 2009, -40 b.

II. Nazariy adabiyotlar.

2.1 Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. -T.: O'qituvchi, 1967, --162 b.

2.2 Adabiyotshunoslik lug'ati. Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M.. -T.:Akademnashr, 2013. -406 b.

2.3 Aristotel. Poetika.-T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980, -150 b.

2.4 Aristotel. Nikomaxova etika. Aristotel. Sochineniya. V 4-x tomax.T.N.—M.: Misl, 1983, -84 b.

2.5 Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. -M.:Isskustvo, 1986. -300 b.

2.6 Belinskiy V.G.Sochineniya Aleksand Pushkina . -569 b.

2.7 Belinskiy .V.G. Adabiy orzular.-T.: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997, -166 b.

2.8 Gegel G.V.F. Estetika. V4-x t. T.1. -M.:Isskustvo, 1968, -312 b.

2.9 Elsberg .Obraz v publitsistike. -M.//Covetskaya pechat, 1960, N10, -120 b.

2.10 Malchanova G.G. Semantika xudojestvennogo teksta.—T.: Fan, 1988.-89 b.

2.11 Ochil Tog'ayev. O'zbek badiiy-publitsistikasi. -T.:Fan, 1973. -13-b.

2.12 E.Proxov. Publitsistika v jizni obshestva. -39-b.

2.13 Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. -T.:O'qituvchi. 1980, 163-b.

2.14 Sher Abdulla. Estetika.T.:O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. -192 b.

2.15 Xudoyqulov M. Badiiy publitsistika janrlari.—T.: Zar Qalam, -34 b.

2.16 . Zohidov V. Na shirokix rubejax sovremennosti. -T. //Korrespondent, N7, 1971, -30 b.

III. Dissertatsiyalar.

3.1 Olimov M. Hozirgi o`zbek adabiyotida pafos muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- T.1996.-148 b.

3.2 Qurbonova S. Yozuvchi publitsistikasining rivojlanish xususiyatlari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T. 2010, -137 b.

IV. Badiiy adabiyotlar.

4.1 Ahmedova H. Umid soyasi. -T.: Nihol, 2008. -168 b.

4.2 Ahmedova H. Shafaq ibodati. -T.: Akademnashr, 2013. -103 b.

4.3 Ahmedova H. Nihol qiblası. -T.: G`.G`ulom nomidagi NMIU, 2011, -111 b.

4.4 Ahmedova H. Yosuman gulining soyasi. -T.: Akademnashr, 2013. -126 b.

4.5 Ahmedova H. Tunggi marvaridgullar. -T.: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1987. -42 b

4.6 Ahmedova H. Tiyrararoh. -T.: O`zbekiston milliy kutubxonasi, 2005. -85 b.

4.7 Ahmedova H. Afsun. -T.:O`zbekiston milliy kutubxonasi, 2007. -112 b.

4.8 Ahmedova H. Erk darichasi. -T.: G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1996. -67 b.

V. Davriy nashrlarda e`lon qilingan badiiy publitsistik maqolalar.

5.1 Ahmedova H. Xudbinlikka qurbim yetmaydi. -T. // Yoshlik. N9. 2012, -64 b.

5.2 Ahmedova H. Tonglarni bedor kutgan shoira. -T. // Jannatmakon.2013. N2, -50 b.

5.3 Ahmedova H. Quyoshli xotiralar. T.// O`zbekiston adabiyoti va san`ati, 2014. N19, -6 b.

5.4 Ahmedova H. Jigarrang kitob. T.//O`zbekiston adabiyoti va sa`nati, 2014. N5. -6 b.

5.5 Ahmedova H. Ko`ngil derzalari quyoshga qaragan yurt. T.//O`zbekiston adabiyoti va sa`nati, 2013. N9 -6 b.

5.6 Ahmedova H. Mukofot.T.// Karvon qo`ng`irog`i. 2013, N64 -18 b.

VI. Internet saytlari.

6.1. www.Wikipedia.org.

6.2. www.ziyouz.com.

6.3. www.mohiyat.uz.

6.4. www.kh-davron.uz

6.5. www.uforum.uz